A. RAFIYEV, G. MUXAMEDJANOVA

O‘ZBEK TILI

TA’LIM RUS VA QARDOSH TILLARDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING 4- SINFI UCHUN DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan 8- nashri



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2020

скачано с сайта www.idum.uz

UO‘K: 811. 512. 133
KBK 81.2 O‘zb(ya71)
R 27

Taqrizchilar: **S. Odilova** — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Z. Salisheva — O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi.

Ekspertlar: **Z. Polvonova** — Toshkent shahridagi 90- maktab o‘qituvchisi.
L. Yunusova — Toshkent shahridagi „ERUDIT“ maktabi o‘qituvchisi.
X. Ziyoxanov — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi, xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

Shartli belgilar

 – Tinglab tushunish

 – O‘qish

 – Gapirish

 – Yozish

 – Savol va topshiriqlarni bajarish

 – Uyga vazifa

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-052-2

© A. Rafiyev, G. Muxamedjanova
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2020

скачано с сайта www.idum.uz



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,
Abdulla Oripov so‘zi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

скачано с сайта www.idum.uz

1- soat VATAN

1- mashq. Rasmlar asosida 4–5 ta bog‘lanishli gap tuzing. O‘z Vataningizni qanday tasavvur qilishingiz haqida gapirib bering.



„O‘zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyi



Ko‘kaldosh madrasasi

1- topshiriq. Matnni o‘qing, ajratilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

VATAN

Vatan! Nima uchun biz ona-Vatan deymiz?

Chunki inson tug‘ilib o‘sgan va **yashayotgan** yer uning Vatanidir. Har birimiz Vatanimizning bir **zarrachasimiz**. Vatan inson tug‘ilib o‘sgan uydan, ko‘chadan, shahardan boshlanadi. Vatan – biz o‘ynab yurgan **tuproq**, ko‘cha. Biz qayerga bormaylik, shu uyimizni, ko‘chamizni, shahrimizni **sog‘inib** qaytamiz. Bizning Vatanimiz – O‘zbekiston. O‘zbekiston biz uchun muqaddasdir.

(„Vatan tuyg‘usi“ kitobidan)

LUG‘AT

Vatan – Родина	**tuproq** – земля
shahar – город	**tug‘ilib o‘sgan** – рождённый
zarracha – частица	**sog‘inmoq** – соскучиться

Mustaqil ish. 1-topshiriqda berilgan matn asosida bajaring.

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Ajratilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib, ifodali o‘qing.
3. Ayting-chi, siz Vatan deganda nimani tushunasiz?

2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing, mazmunini tushuntirib bering.

YURTIM

Gul Vatanim,
Olamda sen
Tengsiz, yagona.
Istiqloling –
Iqbolimiz,
Mehribon ona.

Dildan madhing
Kuylab bizlar
O‘samiz shodon.
Kelajagi
Porloq yurtim –
Hur O‘zbekiston.

Muqimjon Qodiriy

LUG‘AT

olam – мир	**mehribon** – добрый
tengsiz – несравненный	**kelajak** – будущее

Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she’rni yod oling.

2- soat

1- topshiriq. Suhbatni o‘qing va davom ettiring.





– Nima uchun ona-Vatan deyiladi?
– ... ...
– Sizning Vataningiz qayer?
– ... ...
– Nima uchun Vatanni muqaddas ataymiz?
– ... ...

2- topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

O‘ZBEKISTON

O‘zbekiston O‘rta Osiyoning markaziy qismida **joylashgan**. Vatanimiz keng va **bepoyon**. O‘zbekistonda Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Yurtimizda yam-yashil vodiylar, katta daryolar, o‘rmonlar, cho‘l va sahrolar ko‘p.

O‘zbekiston – **serquyosh** o‘lka.

Yurtimiz aholisi **ko‘p millatli**. Turli millat vakillari

inoq va do‘st bo‘lib yashaydilar. Biz o‘z Vatanimizni sevamiz.

(„O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“dan)

LUG‘AT

qism – часть
daryo – река
cho‘l – пустыня
keng – широкий
o‘rmon – лес
quyoshli – солнечный
sahro – степь
ko‘p millatli – многонациональный



1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. O‘z shahringiz haqida so‘zlab bering.



1- mashq. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri tuzishga harakat qiling.

Vatanimizning, bir, har birimiz, zarrachasimiz. O‘zbekiston, Vatanimiz, bizning. Inoq, do‘st, millat, turli, vakillari, va, bo‘lib yashaydilar. Keng, Vatanimiz, bepoyon, va. Ko‘p millatli, aholisi, Vatanimiz.



3- topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

VATAN NIMA O‘ZI?

Donishmandlarning biri: „Vatan – bu sening **kindik qoning tomgan tuproq**“, – desa, ikkinchisi: „Sen sevgan odamlar manzili“, – deydi.



Inson uchun **havo, quyosh, suv, non, ota-ona** qanchalik aziz bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa, ona diyorimizga, uning bepoyon dalalariga, qir-adirlariga, dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdir.

Xurshid Davron

LUG‘AT

kindik – пуповина
mo‘tabar – почтенный, уважаемый
adir – холм
Vatanga muhabbat – любовь к Родине
qir – холмистая степь
dasht – степь

2- mashq. Maqollarni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Daftaringizga ko‘chiring.

Bulbul chamanni sevar,
Odam Vatanni.
Vataning tinch – sen tinch.

Mustaqil ish. Qavsda berilgan raqam o‘rniga alifbo tartibidagi harfni qo‘yib, maqollarni o‘qing.

(14)na (23)urting – oltin (2)eshi(6)ing.
B(20)lbul (28)amanni se(21)ar,
Oda(12) – Va(19)ann(8).

Uyga vazifa. 2- mashqdagi maqollarni yod oling.

3- soat

1- topshiriq. Suhbatni o‘qing va davom ettiring. O‘zingiz ham savollar tuzing.

– Aziza, sen qayerda tug‘ilgansan?

– Men Buxoro shahrida tug‘ilganman. Buxoro qadimiy shahar.

– Sen-chi, Erkin?

– Men Toshkent shahrida tug‘ilganman. Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti.

– Men esa Samarqand shahrida tug‘ilganman. Samarqand ham qadimiy shahar.

– ... .

2- topshiriq. Berilgan so‘zlarni qatnashtirib, so‘z birikmalari va gaplar tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *Vatan, shahar, poytaxt, zamonaviy, binolar, ko‘rkam.*

1- mashq. Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.

TOSHKENT

Toshkent – Vatanimiz poytaxti. Toshkent O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Toshkent mustaqillik yillarida obodonlashdi va ko‘rkamlashdi. Uning ko‘chalari kengaydi. Ko‘priklar, yangi zamonaviy binolar qurildi. Shaharda zamonaviy binolar bilan birga tarixiy obidalar ham ko‘p.

Toshkent eng ko‘rkam va zamonaviy shaharlardan biriga aylandi.

LUG‘AT

poytaxt – столица
obodonlashdi – благоустроился
qadimiy – древний
ko‘prik – мост
ko‘rkam – красивый
bino – здание
zamonaviy – современный

1. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Yangi so‘zlarni yod oling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

3- topshiriq. O‘zingiz yashayotgan shahar yoki qishloq haqida so‘zlab bering.

Namuna: Men Toshkent shahrida yashayman. Toshkent – Vatanimiz poytaxti. ...

Mustaqil ish. Savollarni yozma ravishda bajaring.

1. Toshkentda (shahringizda) qanday tarixiy obidalar bor?

2. Shahringizda qanday istirohat bog‘lari bor?

3. Shahringizdagi yangiliklar haqida so‘zlab bering.



Toshkent. Xotira maydoni



Buxoro



Farg‘ona



Xiva



4- topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

BIZ YASHAYOTGAN ZAMIN

Biz yashayotgan zamin qadimda Movarounnahr – ikki daryo oralig‘i deb atalgan. O‘zbekiston yashil vodiylari va qadimiy shaharlari bilan mashhur. Bu qadimiy shaharlar Sharq durdonalaridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg‘ona kabi shaharlarni ko‘rish uchun har yili ko‘plab sayyohlar kelishadi.

LUG‘AT

zamin – земля
oraliq – расстояние
durdona – жемчужина
sayyohlar – туристы

2- mashq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing.

Onam bilan Buxoro shahriga mehmonga bordik. Xolam menga shaharni ko‘rsatdilar. Shaharni piyoda aylandik. Minorayi Kalon va Mir Arab madrasasi



Minorayi Kalon



Mir Arab madrasasi

menga juda yoqdi. Ularning naqshlari juda chiroyli va muhtasham. Toshkentga qaytganimizdan so‘ng do‘stlarimga taassurotlarim haqida gapirib berdim.

LUG‘AT

mehmonga – в гости
piyoda – пешком
tarixiy – исторический
naqsh – узор
muhtasham – роскошный
taassurot – впечатление



5- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

GO‘ZAL TOSHKENT

Dunyodagi eng go‘zal shahar,
Unga olam havas-la boqar.
Chiroyiga teng kelar bahor,
Ona xalqim chin baxti –
Toshkent.

Mehri bilan yuragim yongan,
Sehri bilan hayratga solgan,
Bobolardan obod, shod qolgan,
Ota yurtim poytaxti –
Toshkent.

Ulug‘ shahrim, seni kuylayman,
Kelajak, kamoling o‘ylayman,
Husningga boqib men, to‘ymayman,
Mangu qo‘shiq, dil madhi –
Toshkent.

Humoyun

LUG‘AT

boqmoq – любоваться **mangu** – вечный
hayratlanmoq – удивляться

Uyga vazifa. 5- topshiriqdagi she’r asosida nuqtalar o‘rnini to‘ldirib yozing.

Dunyodagi ... go‘zal ... ,
Unga ... havas-la ... .
Chiroyiga ... kelar ... ,
Ona ... chin ... –
Toshkent.

1- soat QADRDON MAKTABIM


1- topshiriq. Gaplarni o‘qing. „Nechanchi?“ so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topib ko‘chiring.

Salom! Mening ismim Anvar. Men 24- maktabda o‘qiyman.

Bu – Komila. Mening sinfdoshim. U tennis bo‘yicha maktabimiz chempioni.

Komila ikkinchi marta g‘olib bo‘ldi.







Bu – Gulnora opa. Ular bizning musiqa o‘qituvchimiz. Gulnora opa to‘rtinchi va beshinchi sinflarga dars beradilar.

1- mashq. She’rni ravon o‘qing. **k – q, x – h** tovushlarining to‘g‘ri talaffuziga e’tibor bering.

MAKTABIM

Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon,
Yayrab o‘qiyman har on,
Qadrdonim maktabim!
Senda darslar xilma-xil,
Ongim o‘sar yilma-yil,
Sevinchlarga to‘lar dil,
Qadrdonim maktabim!

Ilyos Muslim

BILIB OLING!

Sanoqni bildiruvchi so‘zlarga **-inchi** qo‘shimchasi qo‘shilsa, narsa-hodisalarning tartibi ifodalanadi.

Masalan: ***bir + inchi = birinchi, o‘n + inchi = o‘ninchi*** kabi.

Raqamlardan keyin tartibni ko‘rsatish uchun chiziqcha (-) qo‘yiladi va u **-inchi** deb o‘qiladi: *18-maktab, 4-xona, 2-sentabr* kabi.



2- topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

MENING MAKTABIM

Men 42- maktabda o‘qiyman. O‘tgan yili maktabimiz uchun yangi bino qurildi. 3- sinfda zamonaviy binoda o‘qidik. Bu bino ikki qavatli bo‘lib, yonida katta sport zali va oshxona bor. Bizning sinfimiz 2- qavatda joylashgan. Bu qavatda kutubxona ham bor.

Men maktabim bilan faxrlanaman. Chunki u juda chiroyli va mashhur. Turli tanlov va sport musobaqalarida birinchi yoki ikkinchi o‘rinlarni olamiz. Yaqinda voleybol bo‘yicha tumanda o‘tkazilgan musobaqada 1- o‘rinni egalladik.

LUG‘AT

mashhur – знаменитый
joylashmoq – располагаться
musobaqa – соревнование
faxrlanmoq – гордиться



1. Matndan tartibni ifodalovchi sonlarni toping va ularni so‘zlarga aylantirib yozing.
2. Maktabingizning kompyuter xonasi nechanchi qavatda joylashgan?
3. Matnni ikki yoki uchta gap bilan to‘ldiring.



2- mashq. Siz ham do‘stingiz bilan muloqotga kirishing va unga javob yozing.

– Men 24- maktabda o‘qiyman.

– Men ... .

– Hozir 4- sinfda o‘qiyapman.

– Men ... .

– Men matematika faniga qiziqaman.

– Men ... .

– Uchinchi darsimiz – o‘zbek tili.

– ... .

Uyga vazifa. O‘z maktabingiz haqida 3 – 4 gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzing.

2- soat

ESLAB QOLING!

HAFTA KUNLARI NOMINI YODDA SAQLANG!

1- kun dushanba

2- kun seshanba

3- kun chorshanba

4- kun payshanba

5- kun juma

6- kun shanba

7- kun yakshanba

1- topshiriq. Berilgan gaplarni „Mozaika“ usulida yig‘ing. O‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Haftaning, dushanba, kuni, birinchi.
Kuni, beshinchi, bugun, haftaning.
Kun, yakshanba, yettinchi.

1- mashq. Namuna asosida savollarga javob yozing.

Namuna: Dushanba haftaning nechanchi kuni?
Dushanba – haftaning birinchi kuni.

— Dushanba haftaning nechanchi kuni?

— Chorshanba ... .

— Seshanba ... .

— Shanba ... .

— Yakshanba ... .

— Payshanba ... .

— Juma ... .



ESLAB QOLING!

Unli harf bilan tugagan sanoqni bildiruvchi so‘zlarga **-nchi** qo‘shimchasi, undosh bilan tugagan so‘zlarga esa **-inchi** qo‘shimchasi qo‘shiladi.

Masalan: *olti + **nchi** = olti**nchi,** sakkiz + **inchi** = sakkizinchi* kabi.

2- topshiriq. Suhbatda ishtirok eting va rasm asosida savollarga javob bering.



1. – Sen Azizani ko‘rdingmi?
   – U kompyuter xonasida.
   – Kompyuter xonasi nechanchi qavatda?
   – Kompyuter xonasi ... .
2. – O‘qituvchilar xonasi qayerda joylashgan?
   – U ... .
3. – Maktab oshxonasi qayerda? Sport zali-chi?
   – ... .

LUG‘AT

sport zali – спортивный зал
o‘qituvchilar xonasi – учительская комната
oshxona – столовая

2- mashq. Raqamlarni so‘z bilan yozing. Chiziqchalar o‘rniga **-nchi, -inchi** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring. O‘z ona tilingizga tarjima qiling.

1. Maktabim 4- mavzeda joylashgan. 2. Akmal 16- maktabda o‘qiydi. 3. Har haftaning 3- kuni ozodalik kuni bo‘ladi. 4. Juma kuni 1- marta nota bilan ashula aytdik.

Uyga vazifa. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

3 - soat

1- topshiriq. O‘qing, sinf jihozlarining nomini eslab qoling.



Men 4- „A“ sinfida o‘qiyman. Sinfimiz 2- qavatda joylashgan.

Bu bizning sinfimiz. Sinfimiz keng va yorug‘. Sinfda stol, stul, parta, kitob javoni, kiyim javoni, tuvaklarda gullar bor. Stolda sinf jurnali, daftar va kitoblar turibdi. Devorda yozuv doskasi, televizor va sinf burchagi lavhasi bor.

2- topshiriq. Do‘stingiz bilan suhbatlashing va uning savollariga to‘g‘ri javob bering.

– Sen nechanchi sinfda o‘qiysan?

– ... .

– Nechanchi partada o‘tirasan?

– ... .

– Hozir nechanchi dars?

– ... .

BILIB OLING!

Bir necha kishi tomonidan bajarilayotgan ish-harakat ma’nosi **-miz** qo‘shimchasi orqali ifodalanadi.

Qiyoslang: *Men she’r yodlayap**man.***
*Aziz va men she’r yodlay**miz.***

1- mashq. Quyidagi fe’llarga **-man** va **-miz** qo‘shimchalarini qo‘shib, gaplar tuzing va yozing. Ish-harakatning bir yoki bir necha shaxslar tomonidan bajarilishini farqlang.



yoza... .

javob bera... .

tozalay... .



yoza... .

javob bera...

tozalay... .

2- mashq. Quyidagi jadvalda berilgan so‘z birikmalaridagi fe’llarga **-miz** qo‘shimchasini qo‘yib o‘zgartiring.

Nima qilmoq?	Nima qilamiz?
Ertak o‘qimoq Qo‘shiq tinglamoq Yangi so‘zlarni takrorlamoq Rasm chizmoq Partalarni artmoq	Ertak o‘qiymiz



3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

SINFIMIZ QO‘SHIG‘I

Bizlar o‘ttiz bola
Ahil o‘rtoqmiz,
Sinfimiz qo‘ynida
Shodon-quvnoqmiz.

Darslarni tinglaymiz
Bir odam bo‘lib,
Qo‘shiqlar aytamiz
Bir olam bo‘lib.

Sinfimizni doim
Saqlaymiz toza.
Maktabda taralgan
Yaxshi ovoza.

Sinfimiz muqaddas
Bilim uyimiz.
Fan, hunar cho‘qqisi
Orzu-o‘yimiz!

Po‘lat Mo‘min

LUG‘AT

ahil – дружно
taralmoq – звучать
sinfimiz qo‘ynida – з д е с ь: в классе
ovoza – з д е с ь: слух
cho‘qqi – вершина
shodon – весело



4- topshiriq. Guruhlarda „Charxpalak“ usulida quyidagi savollarga javob yozing. Yozgan javoblaringiz asosida kichik matn tuzing.

1- savol. Matematika darsida nima qilasiz?
2- savol. Rus tili darsida nima qilasiz?
3- savol. O‘zbek tili darsida nima qilasiz?



3- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Harakat ma’nosini bildirgan so‘zlardagi **-miz** qo‘shimchasining tagiga chizing.

1. Bizning sinfi...ga yangi o‘quvchi keldi. 2. Hozir biz o‘qituvchi... bilan muzeyga ketyap... . 3. Bugun Anvar bilan men sinfda navbatchilik qila... . 4. O‘zbek tili o‘qituvchi... juda talabchan va jonkuyar.



Mustaqil ish. Noto‘g‘ri yozilgan gaplarni toping, to‘g‘rilang va ko‘chiring.

Darsda jim o‘tiramiz.
She’rni hammamiz yodlayman.
Qizlar bilan shaxmat o‘ynaymizmi?
Kel, bu misolni birga yechaman.

ESLAB QOLING!

Sinf jihozlarining nomi va qo‘shimchalari:

Kitob javon**i**	Yozuv doska**si**
Sinf burchag**i**	Sinf deraza**si**
O‘quv quro**li**	O‘quvchi parta**si**
Yozuv daftar**i**	Deraza parda**si**



Uyga vazifa. Topishmoqlarning javobini toping. Bu narsalardan qanday foydalanishingizni ayting. Qo‘llagan fe’llaringizga **-miz** qo‘shimchasini qo‘shishni unutmang.

1. Ustuni yo‘q,
   Ammo uydan kami yo‘q.
   O‘quv qurolim har xil,
   Unda yashar do‘st-ahil.

2. Qat-qat qatlama,
   Aqling bo‘lsa tashlama.

3. Sirli tayoq,
   Ichi bo‘yoq.

4. O‘zi kichik bir narsa,
   Kerak bo‘lar har darsda.
   Chizib qo‘ysang noto‘g‘ri,
   Yo‘q qiladi birpasda.









1- soat KO‘CHAMIZ

1- topshiriq. Rasm asosida berilgan so‘zlardan foydalaning. So‘z birikmalari va gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *Amir Temur haykali, keng, chiroyli, gullar, daraxtlar, ko‘p qavatli, mehmonxona, anjumanlar saroyi.*

BILIB OLING!

Jo‘nalish kelishigi **-ga (-ka, -qa)** qo‘shimchalari bilan yasaladi. Harakatning yo‘nalishini bildiradi. Kimga? Nimaga? Qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

uy ish ko‘cha gulzor	-ga	sirk eshik etak to‘shak	-ka	qishloq qirg‘oq buzoq tuzoq	-qa

1- mashq. Savollarga javob bering va davom ettiring.

– Shahringizning qaysi ko‘chasi sizga yoqadi?

– ... .

– Nima uchun?

– ... .

– U ko‘chada qanday binolar joylashgan?

– ... .

2- topshiriq. Berilgan gaplarni „Mozaika“ usulida yig‘ing. O‘qing, yozing va mazmunini so‘zlab bering.

Men Navoiy ko‘chasida yashayman. Bizning ko‘chamiz keng. Ko‘chamizda avtobuslar, mashinalar qatnaydi.

Namuna:

Men	Navoiy	ko‘chasida	yashayman



3- topshiriq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing.

Bu bizning ko‘cha. Ko‘chamiz Nurafshon deb ataladi. Ko‘chamiz keng va chiroyli. Ko‘chamizda bir nechta bolalar bog‘chasi, ko‘p qavatli va bir qavatli uylar bor. Mahallamiz bolalari bilan ko‘chamizni ozoda saqlashga harakat qilamiz. Turli ko‘chatlar, gullar ekib, parvarish qilamiz. Menga ko‘chamiz juda yoqadi.

LUG‘AT

ko‘cha – улица
keng – широкий
chiroyli – красивый
ozoda – чистый



2- mashq. Ikki ustundagi so‘zlardan bir-biriga mosini topib, **-ga** qo‘shimchasi yordamida so‘z birikmasi tuzing va ko‘chirib yozing.

Ko‘cha	**-ga**	yozdi
Uy		kirdi
Daftar		ketdi
Maktab		chiqdi



4- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

Bizning qishloqni
Yuring ko‘raylik.
Keng ko‘chalari
Juda chiroyli.

Ikki yonida
Qator binolar.
Dam olish uyi,
Maktab, kinolar.

Qudrat Hikmat

Uyga vazifa. 4- topshiriqdagi she’rni yod oling.

2- soat

1- topshiriq. Savollarga javob bering.

– Qanday ko‘chalarni bilasiz?

– ... .

– Qaysi ko‘cha sizga yoqadi?

– ... .

– Ko‘chalar nimasi bilan farqlanadi?

– ... .

– Siz qaysi ko‘chada yashaysiz?

– ... .

1- mashq. Qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.

Men va singlim har kuni maktabga boramiz. Maktabimiz qo‘shni ko‘chada joylashgan. Onam bilan dadam ishga borishadi. Ukam bog‘chaga boradi. Buvim har kuni mahallamiz do‘konidan biz uchun non va boshqa oziq-ovqatlar olib keladilar.



2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

MAKTABIMIZ KO‘CHASI

Maktabimiz ko‘chasi
Katta juda ham.
Tanaffusda o‘ynaymiz,
Barcha shod-xurram.

Gul ekkanmiz xilma-xil,
Ekamiz daraxt.
Hur Vatanni yashnatmoq
Bizlar uchun baxt!

Muhammad Ali

LUG‘AT

o‘ynaymiz – играем
barcha – все
baxt – счастье
shod-xurram – весёлый

Mustaqil ish. Savollarga yozma javob bering.

- Siz qaysi ko‘chada yashaysiz?
- Maktabingiz qaysi ko‘chada joylashgan?
- Amir Temur ko‘chasida qaysi bog‘ joylashgan?
- Navoiy ko‘chasida nimalar bor?

Uyga vazifa. Quyidagi so‘zlarga **-ga** qo‘shimchasini qo‘shib, so‘z birikmalari tuzing va yozing.

1- soat UYIMIZ

1- mashq. Rasm asosida berilgan savollarga javob bering.



1. Sizning uyingiz qaysi ko‘chada joylashgan?
2. Uyingiz necha qavatli?
3. Siz nechanchi xonadonda yashaysiz?
4. Uyingizda qanday xonalar bor?

1- topshiriq. Matnni o‘qing va matn asosida topshiriqlarni bajaring.

Uyimiz Bobur ko‘chasida joylashgan. Biz ko‘p qavatli uyda yashaymiz. Xonadonimiz 6- qavatda. Uyimiz: mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, oshxona, yuvinish xonasi, dahliz va ayvondan iborat. Mehmonxonamiz keng va chiroyli.

Dahlizda kiyim javoni va katta oyna bor. Dahlizdan yuvinish xonasi, oshxona va ayvonga chiqiladi.

Uyimiz menga juda yoqadi. Akam bilan men bolalar xonasida turamiz. Bu xonada 1 ta divan, 1 ta kitob javoni, 1 ta yozuv stoli va 2 ta stul, 2 ta karavot va kompyuter bor. Dars tayyorlashim uchun barcha sharoitlar mavjud. Men uyimizni toza, ozoda saqlashda onamga yordam beraman.

LUG‘AT

uyimiz – наш дом
xonadon – квартира
dahliz – прихожая
ayvon – балкон
mehmonxona – гостиница
bolalar xonasi – детская
yuvinish xonasi – ванная
jihoz – утварь
yoqadi – нравится



1. Matndagi raqamlarni so‘zlar bilan daftaringizga yozing.
2. Matndan uy jihozlarini bildiruvchi so‘zlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.
3. **X** va **h** harfli so‘zlarni ajratib, yozuv doskasiga ikki ustuncha shaklida yozing.
4. Mehmonxona va oshxonangizda nimalar bor? Ro‘yxatini tuzing.

ESLAB QOLING!

O‘rin-joy va harakat yo‘nalishini bildirgan so‘zlarni farqlang!

Qayerda?	Qayerga?
Uyda (o‘tirmoq)	Uyga (bormoq)
Hovlida (ishlamoq)	Hammomga (tushmoq)
Hammomda (cho‘milmoq)	Gulzorga (kirmoq)
Mehmonxonada (ko‘rmoq)	Oshxonaga (kirmoq)
Gulzorda (uchrashmoq)	Ayvonga (chiqmoq)
Oshxonada (ovqatlanmoq)	Hovliga (chiqmoq)
Ayvonda (o‘tirmoq)	Devorga (osmoq)



2- mashq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

1. O‘z uyim – o‘lan to‘shagim.
2. Toza uyga gard qo‘nmas.
3. O‘z uyingni o‘zing asra.
4. Har qush o‘z uyasiga qarab uchadi.



2- topshiriq. She’rni o‘qing. Harakat yo‘nalishini bildiradigan so‘zlarga savol bering.

MEHMONGA KELING

Qator-qator uylarning
Birinchisi bizniki.
Mehmon bo‘lib kelinglar,
Uyning to‘ri sizniki.

Birgalashib chiqamiz
Dalalarga, tog‘larga.
Uzum, anjir, anorlar
Pishib yotgan bog‘larga.

Adham Rahmat

LUG‘AT

qator – ряд
uyning to‘ri – почётное место комнаты
chiqmoq – здесь: идти, подниматься
mehmon – гость
dalalar – поля
tog‘lar – горы
anjir – инжир
pishmoq – созреть

Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she’rni yod oling.

2- soat

1- mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi shaharda yoki qishloqda yashaysiz?
2. Sizning uyingiz qaysi ko‘chada joylashgan?
3. Uyingiz necha qavatli?
4. Siz nechanchi qavatda yashaysiz?
5. Uyingizda qanday xonalar bor?

BILIB OLING!

X tovushi tilning eng orqa qismidan sirg‘alib chiquvchi undosh bo‘lib, nisbatan qattiq talaffuz qilinadi.

H tovushi esa bo‘g‘izdan sirg‘alib chiqadi va yumshoq aytiladi.

Qiyoslang:
sho**x** – sho**h**, **x**ol – **h**ol, **x**alta – **h**alqa.

2- mashq. Berilgan so‘zlarni „Kalit diktant“ usulida jadvalda belgilang.

So‘zlar: Xona, hovli, dahliz, oshxona, xat, baxt, paxta.

	1	2	3	4	5	6	7
H	–						
X	+						



3- mashq. Nuqtalar o‘rniga **x** va **h** harflaridan mosini qo‘ying. So‘zlarni o‘qing va yozing. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Mi., sha.ar, osh.ona, a.il, me.mon.ona, alo.ida, dara.t, .ammom, .ojat.ona, a.loq, ru.sat, tu.um.



1- topshiriq. Savollarga javob bergan holda suhbatni o‘qing va davom ettiring.

– Siz hovlida yashaysizmi?

– ... .

– Hovlingizda nimalar bor?

– ... .

– Uyingizda nechta xona bor?

– ... . Bular: ... .

– Sizning xonangizda nimalar bor?

– ... . Ammo ... yo‘q.

– Sizga qaysi xona yoqadi?

– ... . Chunki bu xona ... .



4- mashq. O‘qing. Matn ichida kelgan savollarga javob bering. **X** va **h** undoshlari ishtirok etgan so‘zlarni ko‘chiring.

SEN YASHAYDIGAN UY

Sen yashaydigan shaharda ko‘p qavatli uylar juda ko‘p. Sen ham ana shu uylarning birida yashaysan. O‘z uyingni yaxshi ko‘rasan. Sen uying atrofi ozoda, ko‘rkam bo‘lishini juda-juda xohlaysan. Shuning uchun ham sen va oila a’zolaring zina va yo‘laklarni doimo tozalaysizlar. Turli chiqindilarni maxsus axlat qutilariga tashlaysizlar.

Uying atrofi toza, chiroyli bo‘lsa, xursand bo‘lasan. Sen hech qachon devorlarga chizmaysan, yozmaysan. Boshqalar-chi? Ular ham ozoda, chiroyli uylarda yashashni xohlaydilarmi? Buning uchun nima qilish kerak?

LUG‘AT

ko‘p qavatli – многоэтажный
atrof – вокруг
ko‘rkam – красиво
xohlamoq – хотеть
yo‘lak – подъезд
chiqindi – мусор
maxsus – специальный
beparvo – безразличный
ta’sir – воздействие

ESLAB QOLING!

X va ***h*** tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qiling!

xona	dastur**x**on	**h**ovli	**h**ashamatli
xontaxta	i**x**cham	da**h**liz	ishta**h**a
xizmat	osh**x**ona	**h**urmat	ma**h**alla

Tez aytishlar:

Xato xabar xom xayoldan xatarli.

Hakim hashamatli hovlisidan Hoshimning xo‘rozini haydabdi.

Mustaqil ish. Uyingiz xonalarida qanday faoliyat bajarishingizni ***-miz*** qo‘shimchali fe’llar bilan to‘g‘ri bog‘lab, gaplar tuzing. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Namuna: *Hammomda yuvinamiz.*

Dahlizda	ovqatlanmoq
Ayvonda	uxlamoq
Oshxonada	suhbatlashmoq
Yotoqxonada	dam olmoq
Mehmonxonada	kiyinmoq

2- topshiriq. Topishmoqlarda yashiringan uy jihozlarining nomini toping va yozing. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

1. Kelsangiz ham,
Ketsangiz ham
Har zamonda
Qo‘l berishni,
Yo‘l berishni,
Qilmas kanda.



2. Bir ajoyib ishxona,
Ichi doim qishxona.



3. Ikki ajib qulog‘i bor,
Biri tinglar, biri so‘zlar.



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi topishmoqlarni yod oling.

1- soat BOG‘DA

1- topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.



1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Bog‘da qanday meva pishgan?
3. Bog‘dagi daraxtlarni kim parvarish qilgan?
4. Nima uchun bog‘larni asrash kerak?



1- mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Tumanimizda yangi (bog‘, gullar) yaratildi. 2. Bog‘dagi daraxtlarni (ishchi, bog‘bon) sug‘oradi. 3. Bog‘da turli (mevali, shirin) daraxtlar o‘sadi. 4. Bu daraxtning olmasi juda (achchiq, shirin) va (suvli, ta’msiz). 5. Bolalar bog‘ga mevali (ko‘chatlar, teraklar) o‘tqazdilar.



2- topshiriq. Matnni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

BOG‘DA

Tog‘am **qishloqda** yashaydilar. Ularning katta bog‘lari bor. Men bu **bog‘ni** juda yoqtiraman. U yerda turli mevali daraxtlar ko‘p. Nusrat tog‘am bu daraxtlarni **parvarish qiladilar.** Yozda bog‘dan besh chelak o‘rik terdik. Kuzda olma, nok va anorlar pishdi. Bog‘dan **besh yashik** olma, **uch yashik** nok va anor oldik. Bog‘da dam olish juda maroqli. Chunki bog‘da havo salqin va yoqimli bo‘ladi. Bog‘lar ko‘p bo‘lsa, tabiat go‘zallashadi. Shuning uchun bog‘larni asrash kerak.

LUG‘AT

qishloq – деревня
parvarish – ухаживать
yoqimli – приятный
maroqli – наслаждающий
go‘zallashadi – становиться красивой



2- mashq. Berilgan so‘zlardan gaplar tuzing.

1. Bog‘da, mevalar, turli, bor.
2. Bog‘imizni, bilan, oilamiz, qilamiz, parvarish.
3. Olma, anor, bor, maktab, olcha, bog‘ida.
4. Har, sinfga, ajratilgan, bog‘dan, joy, bir.



Mustaqil ish. Savollarga javob bering va davom ettiring.

– Bog‘da qanday daraxtlar o‘sadi?

– ... ...

– Bog‘ni kim parvarish qiladi?

– ... ...

– Qaysi mevali daraxt sizga yoqadi?

– ... ...



3- topshiriq. Berilgan savollar ishtirokida tezkor savol-javob o‘tkazing.

1. Bir yilda nechta fasl bor?
2. Siz yoqtirgan faslning nomi?

3. Kuz qanday fasl?
4. Kuz faslida bog‘da bajariladigan ishlarni sanab bering.
5. Kuzda qanday mevalar pishadi?



Uyga vazifa. „Maktab bog‘i“ mavzusida 3–4 ta gap tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ekilgan, chopmoq, parvarish qilmoq, gullar, daraxtlar, sug‘ormoq.*

Namuna: *Maktabimizning bog‘i katta.*



2- soat

BILIB OLING!

O‘zbek tilida narsalarning o‘lchovini ifodalash uchun hisobni bildiradigan so‘zlar ham qo‘llanadi.

Masalan: ikki dona olma, uch yashik uzum, bir piyola choy, olti kilogramm gilos.




1- mashq. Gaplarni o‘qing va hisobni bildirgan so‘zlarni aniqlang. Aniqlangan so‘zlaringizni son bilan yozing.

1. Dala hovlimizga olti tup ko‘chat o‘tqazdik. 2. Buvam tokdan ikki bosh uzum uzdilar. 3. Do‘kondan o‘n dona tuxum va uch yuz gramm pishloq oldim. 4. Bog‘dagi so‘rida besh nafar odam o‘tiribdi. 5. Abror daraxt tagiga ikki chelak suv quydi.

1- topshiriq. Rasmlar asosida berilgan, hisobni bildirgan so‘zlardan mosini tanlab gaplar tuzing.








Foydalanish uchun so‘zlar: *dona, yashik, bog‘, bog‘lam, chelak, tup, stakan.*

2- mashq. Suhbatni o‘qing, javoblardagi bo‘sh o‘rinlarni sonlar va hisobni bildirgan so‘zlar bilan to‘ldiring.

1. – Bog‘ingiz kattami yoki kichik?
– Kichikroq. Bog‘da ... ... daraxt bor.

2. – Sizga qancha uzum tortay?
– Menga ... ... uzum bering.

3. – Bog‘ingizdan qancha hosil olasiz?
– Har yili ... ... o‘rik, ... olma olamiz.

4. – Ko‘chatlar orasida qancha masofa qoldirish kerak?
– Ko‘chatlarni har ... ... o‘tqazish kerak.



2- topshiriq. Alifboda tushirib qoldirilgan harflarni aniqlang va ular yordamida so‘z yasang.

P	**R**	**S**	**O‘**	**K**	**L**
V	**U**	**Sh**	**A**	**T**	**M**
Ch	**I**	**F**	**J**	**E**	**G**
H	**N**	**Q**	**X**	**Y**	**D**
		Z	**Ng**		



3- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

BOG‘I BOBURIY

Bobur Mirzo Hindistonga borib, u yerning sultoni bo‘libdi. Hindistonning bog‘lari ko‘p bo‘lib, meva-chevaga boy yurt ekan. Bobur mendan yodgor qolsin deb, ko‘rkam bog‘ yaratibdi. Dunyodagi eng katta bu bog‘ga turli yurtlardan nihollar: olma, olcha, anor, yong‘oq, o‘rik, bodom kabi yuzlab tup daraxt va gullardan olib kelib o‘stiribdi. Xalq bu bog‘ga „Bog‘i Boburiy“ deb nom qo‘yibdi. Bog‘dagi daraxtlar hosilga kirib, meva beribdi. O‘n minglab qoplarga solingan mevalarni xalqqa tarqatishibdi.

Bobur qovunni yaxshi ko‘rar ekan, ammo bog‘ida qovun pishmabdi. Bog‘bonlar uch-to‘rt yil qovun ekishib, hosil olisholmabdi. Bobur juda xafa bo‘libdi.

Kunlardan bir kun unga qovun keltirishibdi. Bog‘bon bu qovunning „Bog‘i Boburiy“da pishganini

aytibdi. Lekin Bobur hech ishonmabdi. Chunki bu qovun juda xushbo‘y va shirin ekan. Shoh bu qovunni Farg‘onadan keltirishganini bilibdi va xursand bo‘lib, bog‘bonga hadyalar beribdi.

(„Asotir va rivoyatlar“dan)

LUG‘AT

yodgorlik – памятник
dunyo – мир
xushbo‘y – ароматный
hadya – подарок
ko‘rkam – красивый
tarqatmoq – раздать
keltirmoq – принести



Uyga vazifa. Berilgan savollarga 3- topshiriqdagi matn asosida javob bering.

1. Bobur Hindistonda qanday bog‘ barpo qildi?
2. Bu bog‘ga qanday nihollar keltirildi?
3. Nima uchun bog‘da qovun hosil bermadi?
4. Bobur xushbo‘y qovun qayerdan keltirilganini qanday bildi?



2- soat



1- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing. O‘z fikringizni bildiring.

Salim bilan Ali yo‘lda ketayotgan edi. Salim yo‘l yoqasidagi olcha niholini qo‘li bilan sindirdi.

– Nega ko‘chatni sindirding? – dedi Ali Salimga.

– Nima ishing bor, seniki emas-ku? – dedi Salim.

Ayting-chi, Salim yaxshi ish qildimi?

ESLAB QOLING!

Hisobni bildirgan so‘zlar o‘zidan oldingi sanoq son bilan birga qancha? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.


Masalan: *Bog‘bon* ***bir yashik*** *(qancha?) nok keltirdi.*

1- mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bog‘da besh (metr, tup) ko‘chat o‘stirdik. 2. Shu bog‘dan besh (yashik, dona) olma terishdi. 3. Uzumzor katta emas, maydoni uch (gramm, gektar) edi. 4. Yangi bog‘dan mehmonlarga ikki-uch (yashik, kilogramm) olma, besh-olti (dona, hovuch) anor keltirishdi. 5. Uyimizdan yuz (nafar, metr) narida katta bog‘ bor.

2- mashq. Rasmdagi mevalar nomini yozing. Hisobni bildiruvchi so‘zlarni qo‘llab, so‘z birikmalari tuzing.

Namuna: *Ikki bosh uzum.*



2- topshiriq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping.

1. Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil.
Qalin, taxir po‘sti bor,
Hamma yerda do‘sti bor.





2. Marjon-marjon, yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab top.

3. Ko‘k tugmacha, pishsa sariq,
Shirin-shakar: ichi tariq.





4. U yog‘i tog‘, bu yog‘i tog‘,
O‘rtasida sariyog‘.

3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

AHD QILGANDIM

Bobom ekkan olmadan
To‘yib-to‘yib yeganman.
Shunda ahd qilib dildan
Nihol ekay, deganman.
O‘tqazdim turli ko‘chat,
Kelganda kulib bahor.
Yoz bo‘yi qildim mehnat,
Har kim havas-la boqar.
Olmam pishar va guli
Bo‘lar senga poyandoz.
Ochilib bahri diling
Orom topsang sen biroz,
Maqtamasdan bog‘bonni
Eslab qo‘ysang yetadi.

Narimon Orifjonov

Uyga vazifa. 3- topshiriqdagi she’rni yod oling.

1- soat KUZGI ISHLAR

1- topshiriq. Rasmlardagi yoz va kuz fasllarini qiyoslang. Matnlarni o‘z fikringiz bilan davom ettiring.



Kunlar isiydi. Mevalar pishadi. Bolalar oromgohlarda dam oladilar. Ko‘lda maza qilib cho‘miladilar. ...

Polizda qovun va tarvuz pishadi. Havo soviy boshlaydi. Daraxtlarning barglari sarg‘ayadi. Hosil yig‘ib olinadi. ...



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

1. O‘zbekistonda yoz juda ... bo‘ladi. 2. Kuz kelganda havo ... bo‘ladi. 3. Faqat yozda emas, kuzda ham pishadigan ..., ... bor. 4. Kech kuzga borib daraxtlar bargi ... va ... . 5. ... issiq o‘lkalarga ... ketadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *salqin, issiq, mevalar, sabzavotlar, to‘kiladi, sarg‘ayadi, uchib, qushlar.*

LUG‘AT

issiq – жарко
salqin – прохладно
mevalar – фрукты
sabzavotlar – овощи
kech kuz – поздняя осень
sarg‘aymoq – желтеть
to‘kilmoq – выпадать
uchmoq – летать

BILIB OLING!

Ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishi **-lar, -dilar, -sinlar** qo‘shimchalari bilan ifodalanadi.



2- mashq. Gaplarni o‘qing. **-lar, -dilar, -sinlar** qo‘shimchalarini olgan so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Kuzgi ishlar boshlandi. 2. Dehqonlar hosilni yig‘ish uchun dalaga chiqdilar. 3. Hamma qishga tayyorgarlik ko‘radi. 4. Odamlar tarnov va mo‘rilarni tozalaydilar. 5. Hasharchilar kuzgi ishlarda qatnashsinlar.

BILIB OLING!

Quyida berilgan so‘zlardagi ***sh*** tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlaning!

shahar	**sh**oli	ma**sh**hur
shakar	yum**sh**oq	**sh**udgor
shamol	qo‘**sh**iq	qo**sh**iq
i**sh**la	xa**sh**ak	**sh**o‘x
pi**sh**di	qu**sh**	

2- topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqni bajaring.

BUG‘DOY

Bug‘doy yurtimizning asosiy boyliklaridan biri. Bug‘doy kuzda ekiladi. Uni ekishdan oldin yer shudgor qilinadi. Bug‘doy qishi bilan yer ostida unadi.

Boshoqlar to‘lishganda hosilni yig‘ish boshlanadi. Bug‘doy tegirmonga tushguncha dehqonlar katta mehnat qiladilar.

Bug‘doy inson uchun eng kerakli ne’mat. Chunki bug‘doy unidan non pishiramiz. Non – dasturxonimiz ko‘rki.



Matndan **sh** harfi bo‘lgan so‘zlarni toping va bu so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.

LUG‘AT

boylik – богатство
ekmoq – сеять
shudgor – пашня
tegirmon – мельница
yer ostida – под землёй
unmoq – расти
boshoq – колос
yig‘ish – сбор

Mustaqil ish. „Bug‘doy“ matnidan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Bug‘doy qachon ekiladi?
2. Bug‘doydan nimalar tayyorlanadi?
3. O‘zbekiston gerbida nima uchun bug‘doy boshog‘ining tasviri tushirilgan?

3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

OLTIN KUZ

To‘rt faslning asili,
Yerga sig‘mas hosili,
Qanday go‘zal hoziri,
Oltin kuz! Ortiq kuz!
Elga sovg‘a, tortiq kuz.

Bahor, yozning xirmoni,
Oppoq qish qadrdoni,
Oq non, oq palov joni,
Oltin kuz! Ortiq kuz!
Elga sovg‘a, tortiq kuz.

Guli Muhamedova

Uyga vazifa. „Oltin kuz“ she’rini yod oling.

2- soat

1- topshiriq. Suhbatni o‘qing va davom ettiring.

– Kuz faslida qanday ishlar bajariladi?

– Kuz faslida yig‘im-terim ishlari bajariladi.

– Siz uyingizda qanday ishlarni bajarasiz?

– ... .

1- mashq. Rasmlar asosida nima qiladilar? so‘rog‘iga javob bering. Mazmunga mos fe’llarni topib, gaplarni ko‘chiring.

1. Kuzda bepoyon dalalardagi  ... .
2. Yig‘ib olingan  ,  omborlarda ... .
3. Bog‘dan uzilgan  yashiklarga ... .
4. Polizdan  ,  ... .

Foydalanish uchun fe’llar: *joylamoq, termoq, saqlamoq, uzmoq.*

2- topshiriq. Matnni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling.

KUZGI SHUDGOR

Qishlog‘imizning ekin maydoni katta. U yerlar kuzda haydab qo‘yiladi. Bu ishni kuzgi shudgorlash deyiladi. Kuzgi shudgor mo‘l hosil beradi. Xalqimiz „Qish tayyorlar, bahor ekadi, yoz tarbiyalar, kuz yig‘adi“, – deb bejiz aytmagan.

LUG‘AT

shudgor – вспахивание
ekin maydoni – поля, сельхозугодья
hosil – урожай
yig‘moq – собирать

3- topshiriq. She’rni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

KUZ

Kuzimizning go‘zalligin,
Og‘aynilar, ko‘rganmisiz?
Tokdan husayni, yerdan qirqma,
Shoxdan behi uzganmisiz?

Quddus Muhammadiy

Uyga vazifa. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Kuz, barg, qushlar, shamol, yomg‘ir, meva.

3 - soat

1- topshiriq. Rasmlar asosida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni ko‘chirib yozing.





1- mashq. Matnni o‘qing, so‘zlardagi **sh** harfining talaffuziga e’tibor bering. Matndagi savollarga javob yozing.

QARG‘A VA ZOG‘CHA



Qarg‘a bilan zog‘cha o‘lkamizga kuz kirishi bilan uchib keladi. Ularning osmonda gala-gala bo‘lib uchishini ko‘rganmisiz? Qayerlarga qo‘nib, qayerlarda yashashini bilasizmi?

Kuzda uchib kelgan qarg‘a va zog‘chalar dala hamda bog‘larda yashaydi. Chunki shu joylarda ular o‘z „vazifa“larini bajaradi.

Ayting-chi, bu qushlar qanday foyda keltiradi?

Bilasizki, yozda har xil hasharotlar ko‘payadi. Ular sovuq tushishi bilan tuproq-qa, xashak va xazonlar orasiga yashirinib oladi. Keyin shu joylarda in qo‘yadi. Qarg‘a va zog‘chalar ana shu yerdagi hasharotlarni terib yeydi. Shudgor qilingan dalalarni tozalab beradi.



LUG‘AT

o‘lka – край
hasharot – насекомое
qo‘nmoq – присесть
chunki – потому что
gala-gala uchmoq – лететь стаей
in – гнездо
xashak – сено
qarg‘a – ворона
zog‘cha – галка

Mustaqil ish. Meva va poliz ekinlarining nomlarini ajratib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

Qovoq, behi, qovun, anor, xurmo, piyoz, olxo‘ri, olma, shaftoli, tarvuz, nok, uzum, pomidor, sholg‘om, kartoshka, sabzi, karam, bodring.



Kuzgi meva va poliz mahsulotlarining nomlarini yod oling!

2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. Javobini toping. Shu so‘zlar ishtirokida „Klaster“ tuzing.

1. Kichkina dekcha,
   Ichi to‘la mixcha.





2. Tir-tir etib ishlaydi,
Tirnoq-la yer qaziydi.

Tez aytish:

Shokir shamolda sholini shopirdi.

Qishda kishmish pishmasmish,
Kishmish pishsa qishmasmish.

Fayozning ko‘p yozi po‘k piyoz,
Niyozning ko‘p oq piyozi to‘q piyoz.

Sodiq sap – sariq qalam bilan,
Sariq qovun rasmini soldi.

2- mashq. Bo‘sh kataklarga kerakli harflarni qo‘yib, kuzgi meva va sabzavotlarning nomini toping. Keyin meva nomlarini chap ustunga, sabzavot nomlarini o‘ng ustunga yozing.

U □ u □	q □ vu □	a □ j □ r
sh □ lg‘ □ m	b □ h □	a □ o □
sa □ i □ soq	la □ la □ i	t □ rp
n □ k	qo □ o □	t □ r □ uz
ka □ a □	y □ ng‘ □ q	x □ r □ o

Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi topishmoqlarni yod oling.

1- soat KITOB

1- topshiriq. Rasmni kuzating. Namuna asosida o‘rtog‘ingiz bilan suhbatlashing.



– Siz rasmda nimani ko‘ryapsiz?
– Men rasmda kutubxonani ko‘ryapman.
– Kutubxonada qanday kitoblar bor ekan?
– Kutubxonada har xil kitoblar bor ekan.
– Bu kim?
– Bu kutubxonachi.
– Kutubxonachi nima qiladi?
– Kutubxonachi kitoblarni tartibga soladi, kitob beradi.
– Sizning maktabingizda kutubxona qayerda joylashgan?
– Kutubxonamiz birinchi qavatda joylashgan.



2- topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

KITOB

– Eng yaqin do'stim,
Qani, ayt-chi, kim?
Bilsang, darrov top.
– Bebaho kitob.

– Ayt, nima uchun
Xursandmiz, Uchqun?
– Bizga juda bop
Chiqibdi kitob.

Kitob keng dunyo,
So'zi nur go'yo.
Qo'ysang mehringni,
Ochar zehningni.

Qudrat Hikmat

BILIB OLING!

Nutqimizda biror shaxsga, predmetga ta'rif berilayotganda ***haqida, to'g'risida*** so'zlaridan foydalanamiz.

Masalan:

Kutubxona to'g'risida. Onam haqida.



1- mashq. Savollarga javob yozing.

Siz o'qigan	birinchi o'zbekcha eng qiziqarli sarguzasht	kitobning nomi nima?

3- topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

NONDAY AZIZ

Kitob – nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas. Shuning uchun kitobni sevish, qadrlash kerak. Bu an’ana qadimdan boshlangan. Kitob o‘qish haqida juda ko‘p hikmatli so‘zlar bor:

Qush don qidirar, odam – kitob.

Kitob – bilim manbai.
Kitob – ko‘zgu, undan olamni ko‘rasan.

LUG‘AT

kitob – книга
muqaddas – священный
an’ana – традиция
hikmatli – мудрый

4- topshiriq. „Charxpalak“ texnologiyasi asosida savollarga javob bering.

1- guruhga savol: Kitobni asrash uchun nima qilish kerak?
2- guruhga savol: Qanday kitoblarni bilasiz?
3- guruhga savol: Qanday kitoblarni o‘qimoqchisiz?

Uyga vazifa. 3- topshiriqdagi matnga savollar tuzing.

2- soat

1- topshiriq. O‘qing va ***-gan*** qo‘shimchasi qatnashgan so‘zlar ishtirokida suhbatni davom ettiring.

– Bolalar, yaxshi bilan yomonni ajratish uchun nima qilish kerak?

– Ko‘p kitob o‘qish kerak.

– Siz qanday kitob o‘qigansiz?

– Men ... .

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.

Kitob ... xazinasi. U eng yaqin ... . Kitobni tashlama, ... Uni ehtiyot ... . Kitob sahifalariga ... , ularni ... , kitobni toza ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *bilim, buklama, tut, yirtma, qil, chizma, do‘st.*

2- mashq. Gaplarni ko‘chiring, **-gan** qo‘shimchasining tagiga chizing.

1. Ibn Sino tibbiyot haqida ko‘p kitob yozgan.
2. Ko‘p o‘qigan unib-o‘sar, o‘qimagan uyatga qolar.
3. Sport bilan shug‘ullangan inson sog‘lom bo‘ladi.

BILIB OLING!

Ancha ilgari bo‘lib o‘tgan harakatni bildirish uchun **-gan** qo‘shimchasidan foydalanamiz.

Masalan: Men bu kitobni o‘qiganman.

Birlik:

I shaxs	*Men o‘qi + **gan** + man*
II shaxs	*Sen o‘qi + **gan** + san*
III shaxs	*U o‘qi + **gan***

Ko‘plik:

I shaxs	*Biz o‘qi + **gan** + miz*
II shaxs	*Siz o‘qi + **gan** + siz*
III shaxs	*Ular o‘qi + **gan** + lar*



2- topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Kitobni seving. Kitob yaxshi maslahatchi. U eng yaqin do‘st, yo‘l ko‘rsatuvchi, o‘qituvchi. Demak, kitob bizning do‘stimiz. Do‘stingizga xiyonat qilmang. Uni ehtiyot qiling. Kitobni yirtmang, tashlamang. Uning sahifalariga chizmang, buklamang. Kitobni toza tuting. Unda o‘tgan zamonlar haqida qiziqarli ma’lumotlar bor. Kitobni o‘qib, bilimlaringizni boyiting. Eng yaxshi kitobxon bo‘lishga harakat qiling.

LUG‘AT

maslahatchi – советник
sahifa – страни!ца
yo‘l ko‘rsatuvchi – путеводитель
o‘tgan zamonlar – прошедшие времена
tashlamoq – бросать
yirtmoq – рвать
ehtiyot qilmoq – беречь
xiyonat – предательство
buklamoq – загибать
qiziqarli ma’lumot – интересное сведение

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.
2. „Senga qanday kitoblar yoqadi“ mavzusida dialog tuzing.



3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

KITOB NIMA DESALAR

Kitob nima, desalar,
Kitob – bu kon, dedilar.
Qo‘shilmayman hech bunga,
O‘xshamaydi u konga.

Yillar, asrlar o‘tib,
Konda ma’dan tugaydi.
Gaz-u temir, ko‘mir ham
Oz-ozdan tugaydi.

Kitoblar-chi, aksincha,
Oshib borar yilma-yil.
Turar dunyo turguncha
Ko‘chib yurar tilma-til.



Miraziz A’zam

LUG‘AT

kon – рудник
asr – век
ma’dan – металл
aksincha – наоборот
ko‘chib yurmoq – здесь: переходить



Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan kitobingiz haqida so‘zlab bering.



3 - soat



1- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

KITOB

Maktabimizda kutubxona bor. Kutubxonada har xil kitoblar ko‘p. Biz ertak, hikoya kitoblarni qiziqib o‘qiymiz. Bu yerda Vatanimiz haqidagi kitoblar ham bor. Kitobni seving. Ko‘p kitob o‘qishga harakat qiling.

LUG‘AT

kutubxona – библиотека
ertak – сказка
hikoya – рассказ
seving – любите
harakat qilmoq – здесь: старайтесь



2- topshiriq. Savollarga og‘zaki javob bering.

✓ Siz „Uch og‘ayni botirlar“ ertagini o‘qiganmisiz?

✓ Kutubxonada „Sehrli qalpoqcha“ kitobi bormi?

- Siz kutubxonadan kitoblar olasizmi?
- Siz qaysi kutubxonaga a’zo bo‘ldingiz?



1- mashq. Yoz, o‘qi so‘zlarini birlik va ko‘plikda tuslang.

Namuna:

Shaxslar	Birlik	Ko‘plik
I	Men kel + gan + man	Biz kel + gan + miz
II	Sen kel + gan + san	Siz kel + gan + siz
III	U kel + gan	Ular kel + gan + lar



2- mashq. Hikmatlarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

1. Kitob javoni – ilm xirmoni,
   Undagi har jild – aql darmoni.
2. Kiyim ustingni bezaydi,
   Kitob aqlingni.
3. Ko‘p yurgan ko‘p ko‘rar,
   Ko‘p o‘qigan ko‘p uqar.
4. Oltin yer tagidan kovlab olinadi,
   Bilim – kitobdan.
5. Kitob – insonning do‘sti.



Mustaqil ish. Tavsiyalarni o‘qing va amal qiling.

O‘QUVCHIGA TAVSIYA

- Kitob tanlashda o‘qituvchidan yordam so‘rang.
- Darsliklaringizni avaylab, ozoda tuting.

✓ Ustki qismiga jild o‘rab qo‘ying.

✓ Kitobga chizmang, uni yirtmang, buklamang.


3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

KITOB

Azizimsan, qadrdonim,
Sahifangni yopolmayman.
Dunyolarni kezib chiqsam,
Seningdek do‘st topolmayman.

Bag‘ringdagi har bir varaq,
Zinhor emas oddiy qog‘oz.
Har birisi bergay saboq,
Bamisoli buyuk ustoz.

Endi bilsam inson uchun
Kitob chindan oftob ekan.
Eng yaqin do‘st, sodiq sirdosh,
Koni bilim, odob ekan.



Dildora Muhiddin qizi

LUG‘AT

qadrdon – дорогой	**saboq** – знание
qog‘oz – бумага	**buyuk** – великий
kon – клад	**odob** – вежливость

Uyga vazifa. O‘quvchiga berilgan tavsiyalarni yod oling va daftaringizga yozing.

1- soat BOZORDA

1- topshiriq. Matnni o‘qing. Yulduzning buvisi qanday maslahat bergan. Gapirib bering.



Yulduzning dadasi bilan onasi sayohatga ketishgan. Yulduz uyda buvisi bilan qoldi. Bugun onasi bilan dadasi qaytib kelishadi. Buvi va nabira shu munosabat bilan bayram dasturxoni tayyorlashmoqchi. Ular somsa va palov pishirishmoqchi. Darsdan keyin Yulduz va buvisi bozorga borishmoqchi. Yulduz uyga kelganida buvisi kasal edi. Bozorga Yulduzning o‘zi boradigan bo‘ldi. Buvisi nabirasiga bozordan narsalarni qanday xarid qilish to‘g‘risida maslahatlar berdi:

1. Sotib olmoqchi bo‘lgan narsalaringning ro‘yxatini yozib ol.
2. Bozorda xushmuomala bo‘l.
3. Faqat o‘zingga yoqqan meva va sabzavotlarning narxini so‘ra.
4. Meva va sabzavotlarning sifatiga e’tibor ber.

LUG‘AT

sayohat – путешествие
qaytmoq – вернуться
xarid qilish – покупка
xushmuomala – вежливый

1- mashq. Bozordagi meva, sabzavot va boshqa mahsulotlar haqida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:

– Sizga bu olmadan necha kilogramm kerak?
– Menga shu olmadan ikki kilogramm bering.

2- topshiriq. Meva va sabzavotlar nomini qo‘yib, bozordan nimalardan qancha olganingizni ayting.






bir dona ikki kilogramm ikkita bir chelak

2- mashq. Savol va javoblardagi nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring va suhbatni davom ettiring.

– Bozorga onang bilan ...?

– Yo‘q, ... bilan bordim.

– Nimalar sotib ... ?

– ... va ... sotib oldik.

– Uzum ... so‘m ekan?

– Uzum ... so‘m ekan.

– Rahmat, men ham ... olmoqchiman.

3- topshiriq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzing.

Mevalar, sabzavotlar, ko‘katlar, 2 kilogramm go‘sht, 3 kilogramm guruch, 1 kilogrammdan pomidor va bodring, 1 kilogramm bulg‘or qalampiri, 200 gramm ziravor.

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni o‘qing va ko‘chiring.

1. Bir bog‘ ... (olma, anor, kashnich) kerak. 2. Biz bozordan 2 kilogramm ... (limon, olma, qalampir) sotib oldik. 3. Menga 3 kilogramm ... (piyoz, ukrop, zira) bering. 4. Dasturxonga 5 dona ... (suzma, anor, limon) qo‘ying.

Mustaqil ish. „Intervyu mashqi“. Guruhlarda ishlash.

1-guruhga savol: Sizning oilangiz necha kishidan iborat? 2-guruhga savol: Oilada kim bozor qiladi? 3-guruhga savol: Uyingiz atrofida qaysi bozor joylashgan?

4- topshiriq. She’rni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

QOVUN

Obinovvot qovunman,
Bitta tishlab ovun, ma.
Nega bo‘ldim men nomdor?
Chunki choponim guldor.
Yonbosh qilib yotaman,
Shirin o‘yga botaman.
Xayolimda odamlar –
Bozorda meni tanlar.



Anvar Obidjon

LUG‘AT

qovun – дыня
tishlamoq – откусить
shirin – сладкий
xayol – здесь: в мыслях

Uyga vazifa. „Qovun“ she’rini yod oling.

2 - soat

1- topshiriq. Rasm asosida berilgan so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *sotuvchi, xaridor, ho‘l mevalar, sabzavotlar, ko‘katlar, quruq meva, yong‘oq, yeryong‘oq, qancha, narx, necha so‘m.*

2- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

BOZOR

Bozor savdo-sotiq qilinadigan maydon. U yerda sotuvchilar xaridorlarga o‘z mahsulotlarini sotadilar. Bozorda har xil mahsulotlar uchun rastalar ajratilgan bo‘ladi. Bozorga borganingizda ho‘l me-

valar, quruq mevalar, ziravorlar, non mahsulotlari, qandolatchilik, hunarmandchilik rastalariga ko‘zingiz tushadi.

LUG‘AT

rasta – прилавок
xaridor – покупатель
quruq meva – сухофрукты
sotuvchi – продавец
mahsulot – продукт
ho‘l meva – фрукты



1- mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

Bir bog‘ ko‘kat, bir kilogramm olma, arzon, qimmat, necha so‘m, mahsulot, sotuvchi, xaridor, rasta.

ESLAB QOLING!

Narsa belgisini bildirgan so‘zlar qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi.
Masalan: *qizil olma, shirin kulcha.*

To‘g‘ri talaffuz qiling

- Arzon mahsulot
- Katta bozor
- Sifatli quruq meva
- Pishgan tarvuz
- Shirin qovun
- Mazali shirinliklar
- Shirin uzum
- Nordon anor



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, daftaringizga ko‘chiring.

1. O‘zbekistonda turli xil ... va ... yetishtiriladi. 2. Meva va sabzavotlar ... sotiladi. 3. Bozorga borib mahsulotning ... so‘raymiz. 4. Rastalardagi ... narxi bilan ... ham e’tibor beramiz. 5. Bozorda yurganimizda ... bo‘lishimiz kerak.

Foydalanish uchun so‘zlar: *xushmuomala, meva, sabzavotlar, sifatiga, narxini, odobli, maxsus rastalarda, mahsulotning.*



3- mashq. Berilgan so‘zlarni guruhlarga ajrating. Har bir o‘quvchi bittadan so‘z ishtirokida gap tuzadi.

Namuna:

mevalar	**gullar**	**sabzavotlar**
olma	atirgul	karam

So‘zlar: handalak, kartoshka, nok, qovun, anor, piyoz, limon, qovoq, chinnigul, karam, atirgul, olma, binafsha, sabzi.



3- topshiriq. *Marhamat, kelinglar, nima beray, rahmat*, *kelib turing* so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib dialog tuzing.



Uyga vazifa. Uyingiz yaqinidagi bozor haqida 3 – 4 ta gap tuzing.

3 - soat



1- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

– Assalomu alaykum.

– Va alaykum assalom.

– Olmangizning narxi qancha?

– ... .

– Ko‘katning bog‘i necha so‘m turadi?

– ... .

– Bir kilogramm guruch qancha turadi?

– ... .

– Bir dona tarvuz-chi?

– ... .

– Qimmat, arzonroq berasizmi?

– ... .

– Rahmat.

ESLAB QOLING!

Harakat, faoliyat, ishni bildiruvchi so‘zlar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Masalan: *Dehqon hosilni yig‘di. Yashiklarga joylayapti. Hosilni bozorda sotmoqchi.*



1- mashq. Berilgan so‘zlardan gaplar tuzib, savol bering va jadvalga joylashtiring. Masalan: olma.

Olma daraxtda (nima qiladi?) *o‘sadi.*

Daraxtda o‘sadi	Polizda o‘sadi	Novvoyxonada pishadi
Olma . . .	. . .	. . .

O‘rik, nok, karam, sabzi, sholg‘om, qatlama patir, shaftoli, non, shirmoy non.



2- topshiriq. Matnni o‘qing. Matn asosida bozor haqida suhbatlashing.

BOZORDA

Bugun biz o‘zbek tili o‘qituvchimiz bilan bozorga bordik. Maktabimiz Oloy bozoriga yaqin yerda joylashgan. Darsimiz mavzusi – „Bozorda“. Dars amaliy mashg‘ulot tarzida o‘tkazildi. O‘qituvchimiz bizni bozor rastalari bilan yaqindan tanishtirdilar. Savdo-sotiq qilish qoidalarini o‘rgatdilar. Bozorda o‘zimizni qanday tutishimiz, muomala qilishni amalda ko‘rsatib

berdilar. Menga non rastasi juda yoqdi. Nonlarning turlari bilan yaqindan tanishib oldik. Dars juda qiziqarli bo‘ldi.

LUG‘AT

muomala – обращение
amaliy mashg‘ulot – практическое занятие

3- topshiriq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

Ko‘ylagi qavat-qavat,
Tugmalari yo‘q faqat.





Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo‘lar oziq.

Mustaqil ish. Nuqtalar o‘rniga savollarga mos javoblar toping va suhbatni davom ettiring.

– Amaki, olmangiz necha so‘m turadi?

– ... .

– Olma shirinmi (nordonmi)?

– ... . Marhamat, ...

– Rahmat, necha so‘mdan berasiz?

– ..., necha ... tortay?

– ... ... torting.

Uyga vazifa. 3- topshiriqda berilgan topishmoqlarni yod oling va daftaringizga ko‘chiring.

1- soat DO‘KONDA

1- topshiriq. O‘qing. Lug‘atda berilgan so‘zlarni matndan topib, unga bog‘lanib kelgan so‘zlardan hosil bo‘lgan so‘z birikmalarini aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.

DO‘KON

Turli narsalarni sotib olish mumkin bo‘lgan joy do‘kon deb nomlanadi. Do‘konlardan har xil mahsulotlarni sotib olamiz. Mahsulotlarning turiga qarab do‘konlarga nom beriladi. Masalan: „Oziq-ovqat“, „Kiyim-kechak“, „O‘quv qurollari“, „Qurilish mollari“ do‘konlari va boshqalar.

Do‘konda sotuvchidan narsalarni xarid qilamiz. Sotuvchi xaridorlarga xizmat ko‘rsatadi.

LUG‘AT

xarid qilmoq – покупать
oziq-ovqat – продукты
kiyim-kechak – одежда
har xil – разное
xizmat ko‘rsatmoq – обслуживать

BILIB OLING!

-dan qo‘shimchasi so‘zlarga qo‘shilganda predmetning kelib chiqish o‘rnini bildiradi. Bu so‘zlar kimdan?, qayerdan?, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Masalan: *Nigora* ***bozordan*** *gul sotib oldi. Salima* ***do‘kondan*** *keldi.*



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib, daftaringizga yozing.

1. Dadam ish... (-ga, -dan) erta keldilar.
2. Botir do‘kon... (-dan, -ni) non oldi.
3. Onam ko‘ylakning narxini sotuvchi... (-ning, -dan) so‘radilar.
4. Daftarimni „O‘quv qurollari“ do‘koni... (-dan, -ga) xarid qildim.



2- mashq. Gaplarni ko‘chiring va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Do‘konda har xil mahsulotlar sotiladi. 2. O‘zbek tili darsidan so‘ng musiqa darsi bo‘ladi. 3. Ustozim bizdan uy vazifasini so‘radilar. 4. Onamdan kitob sotib olish uchun pul so‘radim.



2- topshiriq. Suhbat matnini to‘ldiring.

Kiyim do‘konidan nima oldingiz?

... ...

Siz qanaqa ko‘ylak oldingiz?

... ...

Qanday rangli kiyimlarni yoqtirasiz?

... ...

Uyga vazifa. Uyingizdan to maktabgacha qanday do‘konlar borligi haqida ma’lumot yozing, **-dan** qo‘shimchasi ishtirokida 3 – 4 ta gap tuzing.

2 - soat

1- mashq. Ustunchalardagi so‘zlarni o‘qing. Bir-biriga mos keladigan so‘zlardan so‘z birikmalari tuzing.

yashil	ko‘ylak
shoyi	karavot
yog‘och	ro‘mol
ipak	ot
temir	paypoq

oq	kovush
qora	paxta
jun	nimcha
katta	chopon
adras	uy

1- topshiriq. Suhbatni o‘qing va davom ettiring.

– Salom, Dilshod. Qayerdan kelyapsan?

– Salom, Aziza. „Sabzavotlar do‘koni“dan kelyapman.

– „Sabzavotlar do‘koni“dan nima sotib olding?

– Do‘kondan karam sotib oldim. Onam karamdan sho‘rva pishirmoqchilar.

– ... .

BILIB OLING!

Narsalarning nimadan tayyorlanganligini ifodalashda shu material nomini bildiruvchi so‘zlar qo‘llanadi. Bu so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda sifat vazifasida keladi.

Masalan: *Munisa boshiga shoyi* (qanday?) *ro‘mol o‘radi. Do‘kondan charm* (qanday?) *qo‘lqop sotib oldim.*



2- topshiriq. Matnni o‘qing. Birinchi va ikkinchi gapni ona tilingizga tarjima qiling.

OZIQ-OVQAT DO‘KONIDA

Ko‘chamizda oziq-ovqat do‘koni bor. Bu do‘konda un, guruch, shakar, sariyog‘, non va turli shirinliklar sotiladi. Do‘kondan har xil oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish mumkin. Men do‘stim Komron bilan har kuni do‘kondan issiq non sotib olamiz. Sotuvchi bizga qaytim berganda „Qaytimini yo‘qotmay, ota-onangizga bering“, – deydi.

LUG‘AT

ko‘chamizda – на нашей улице
sariyog‘ – сливочное масло
turli – разные
qaytim – сдача
sotib olmoq – покупать
yo‘qotmay – не потеряв



3- topshiriq. Partadoshingiz bilan suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

– Salom, Aziz, qayerga ketyapsan?

– Salom, Dildora. Men oziq-ovqat do‘koniga ketyapman. O‘zing-chi?

– Men esa xo‘jalik mollari do‘konidan kelyapman. U yerdan mix oldim ...



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Onam do‘kon... (-ni, -dan) ro‘mol oldilar. 2. Dadam... (-ga, -dan) ruxsat so‘radim. 3. Dugonam kiyim do‘koni... (-dan, -da) paxtali nimcha oldi. 4. O‘zbek tili fani... (-da, -dan) yaxshi baho oldim.



Mustaqil ish. Kimdan? Qayerdan? Nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarga 3 ta misol keltiring. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *bozor, do‘kon, choy, sotib olmoq.*

Namuna: Akamdan kitob oldim.

Uyga vazifa. Uyingiz yaqinida joylashgan oziq-ovqat do‘konidan qaysi mahsulotlar necha so‘m turishini yozib keling.

3 - soat

1- topshiriq. Rasm asosida kiyim do‘konidan nimalar olganligingiz haqida namunadagidek gaplar tuzib suhbatlashing.



Namuna:
– *Kiyim do‘konidan nima oldingiz?*
– *Do‘kondan kurtka oldik.*
– *Qanday kurtka oldingiz?*
– *Qizil kurtka oldik.*

BILIB OLING!

O‘zbek tilida narsalarning rangini ifodalashda oq, yashil, ko‘k, sariq, qizil, qora kabi sifatlar ishlatiladi. Rang-tus bildiruvchi bu sifatlar otlar bilan „sifat + ot“ qolipida bog‘lanadi.

Masalan: *Do‘kondan **oq** ko‘ylak sotib oldim. Sizga **qizil** palto yoqdimi?*

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Kiyim do‘konida ipak ... ko‘p. 2. Sizga ... kiyim yarashadi. 3. Dugonam qishda boshiga ... qalpoq kiyadi. 4. Oybek ... palto kiyishni yoqtiradi. 5. Menga ... rangli ... paypoq bering.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ko‘k rangli, to‘rli, jun, qora, qizil, ko‘ylaklar.*

2- topshiriq. Matnni o‘qing, ajratilgan so‘zlarga ***qanday?*** so‘rog‘ini bering. Ularni daftaringizga ko‘chiring.

KIYIM DO‘KONIDA

Ko‘chamizda yangi kiyim do‘koni ochildi. Dadam, onam va men do‘konga bordik. Do‘konning ichi **keng** va **yorug‘** ekan. Do‘konda turli **milliy** va **zamonaviy** ko‘ylaklar, shim, palto va kastumlar juda ko‘p. Avval onam ko‘ylak tanladilar. **Ko‘k** ko‘ylak onamga yarashdi, u **oq** yoqali, chiroyli edi. Dadam **qora** shim sotib oldilar. Menga oq ko‘ylak va qora shim olib berishdi. Do‘kon menga juda yoqdi.

LUG‘AT

kiyim – одежда
shim – брюки
yoqali – с воротником
milliy – национальный



2- mashq. Savollarga mos javob yozing.

– Kiyim do‘konida nimalar sotiladi?

– ... .

– Sizga qaysi rangdagi ko‘ylak yoqadi?

– ... .

– O‘quvchilar qanday rangli kiyim kiyishadi?

– Qiz bolalar ... , o‘g‘il bolalar ... .

– Siz shu qizil paltoni olmoqchimisiz?

– ... .



Mustaqil ish. Partadoshingiz kiyimlarining rangi to‘g‘risida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: Bobur oq ko‘ylak va qora kastum kiygan.



Uyga vazifa. Qanday do‘konlarni bilasiz? 3–4 ta gap tuzing.

1- soat MAKTAB OSHXONASI

1- topshiriq. Matnni o‘qing va rasm asosida mazmunini so‘zlab bering.



MAKTAB OSHXONASI

Bu maktab oshxonasi. Oshxonamiz keng, yorug‘ va chiroyli. Biz har kuni shu yerda ovqatlanamiz. Oshpazimiz Adiba opa juda mazali taomlar tayyorlaydilar. Nonushtaga issiq somsa, tuxum va shirin choy bo‘ladi. Tushlikka palov, sho‘rva, mastava, chuchvara kabi taomlar tayyorlanadi. Bugun tanaffusda do‘stim Aziz bilan birga tushlik qildik. Men shirin choy oldim. Aziz palov va sharbat oldi. Taom juda mazali ekan.

LUG‘AT

sharbat – сок
sho‘rva – шурпа, суп
manti – манты
tushlik – обед
palov – плов
yeymiz – будем есть
ovqatlanamiz – будем обедать
mastava – рисовый суп
chuchvara – пельмени
shirin – сладкий
ichamiz – будем пить
mazali – вкусный
oshpaz – повар



2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing. Mazmunini ayting.

OSHXONADA

Pishiray deb shirguruch,
Nonushtaga – azonda.
Dadam keltirgan sutni
Oyim soldi qozonga.
Qarab tursam, chiqmoqchi
U qozonning ichidan.
Qaymog‘i vijirlagach,
Shoshilib qoldik chindan.
Bolalar olov bilan
Bo‘lmas ekan o‘ynashib,
Shuncha hushyor bo‘lsak ham
Sutimiz ketdi toshib.

Abdurahmon Akbar

LUG‘AT

shirguruch – рисовая каша
qaymoq – сливки
nonushta – завтрак
sut – молоко
toshib ketmoq – переполнить
qozon – казан



1- mashq. Lug‘atda berilgan so‘zlardan foydalanib, so‘z birikmalari tuzing.

Namuna: Mazali sho‘rva.



Mustaqil ish. Savollarga javob bering.

1. Maktab oshxonasidagi taomlar sizga yoqadimi?
2. Sizga qanday milliy taomlar yoqadi?
3. Yana qanday milliy taomlarni bilasiz?



Uyga vazifa. „Oshxonada“ she’rini yod oling.



2- soat



1- topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Bu o‘zbek milliy taomlari oshxonasi. Oshxonada doimo odam ko‘p. Nonushtaga issiq somsa yoki shirinlik olish mumkin.

Bu yerda go‘shtli, kartoshkali, qovoqli somsalar ham bor. Oshpazlar osh damlaydilar. Ko‘rada kabob pishiradilar. Oshxonada moxora, sho‘rva, mastava, moshxo‘rda kabi suyuq taomlar, palov, manti kabi quyuq taomlar ham bor.

Bu yerda hamma taomlar mazali tayyorlanadi.

LUG‘AT

doimo – всегда
ko‘ra – мангал
suyuq – здесь: первое блюдо
osh damlamoq – готовить плов



1- mashq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Siz qaysi oshxonada ovqatlanasiz?
2. Oilangizda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?
3. Siz yana qanday taomlarni yoqtirasiz?

Foydalanish uchun so‘zlar: *mazali, chuchvara, manti, osh, mastava, suyuq taom, quyuq taom, choy, sharbat, mineral suv.*



Mustaqil ish. Oshxona qoidalari bo‘yicha savollarga javob bering. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Oshxonada nimalarga e’tibor berish kerak?

A) Taom olish uchun ... turish kerak.
B) Taomni ... yeyish lozim.
D) Ovqatlanib bo‘lgach, ... yig‘ishtiring.
E) Ovqatlanish paytida ko‘p ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘kmasdan, gapirmang, navbatga, idishlarni.*



2- mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlarga bog‘lab, gaplar tuzing va ko‘chiring.

Namuna: – *Men palov yeyman. Siz-chi?*

Nima?	Nima qilasiz?
choy	yemoq
non	pishirmoq
suv	ichmoq
sho‘rva	olmoq
pishloq	qaynatmoq



2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Maktabingiz oshxonasi qanday?
2. U qayerda joylashgan?
3. Bugun nimalar yedingiz va ichdingiz?
4. Oshxonada qanday taomlar tayyorlanadi?



3- topshiriq. „Kalit diktant“ mashqi. Berilgan so‘zlarning to‘g‘ri tarjimasini belgilang.

1. Navbatchi	3	1. обед
2. Tarqatmoq		2. с аппетитом
3. Ajratilgan		3. дежурный
4. Tushlik		4. ложка
5. Qoshiq		5. раздовать
6. Ishtaha bilan		6. отведённый



Uyga vazifa. Uyingiz oshxonasi haqida 3–4 gapdan iborat matn tuzing.

1- soat YIL FASLLARI VA OB-HAVO

1- mashq. Rasmlarni kuzating. Ular asosida suhbatlashing. Quyidagi savollarga javob bering.

- ✓ Har fasl necha oydan iborat?
- ✓ Fasllarda ob-havo qanday farq qiladi?
- ✓ Sizga qaysi fasl yoqadi? Nima uchun?






1- topshiriq. She'rni o'qing, mazmunini so'zlang.

TABIAT ALIFBOSI

Qulupnay, tut va gilos –
Bu bahor sernoz.
Qovun, tarvuz, handalak –
Oltin yoz demak.

Ko'sak „gullab", anorga
Kirsa qirmiz tus,
Yetib kelgan bo'ladi
O'lkamizga kuz.

Boshlansa sharbat, qiyom,
Tuzlama ochish,
Bilaverki, qor yog‘ar –
Bu degani qish ... .

Abdurahmon Akbar

LUG‘AT

sernoz – капризный
ko‘sak – коробочка хлопка
qiyom – варенье
tuzlama – соленье
qirmizi – бордовый

ESLAB QOLING!

Qishdan keyin **bahor**,
Bahordan keyin **yoz**,
Yozdan keyin **kuz**,
Kuzdan keyin **qish** keladi.

Qishda havo **sovuq**,
Bahorda havo **iliq**,
Yozda havo **issiq**,
Kuzda havo **salqin** bo‘ladi.

BILIB OLING!

O‘zbek tilida so‘zlovchining ko‘pchilik bilan bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatini ifodalashda fe’llarga **-k** qo‘shimchasi qo‘shiladi.

U I shaxs ko‘plik sondagi fe’llarni tuslovchi qo‘shimchadir.

Qarang: *Biz archani bezadi**k**. Lobar bilan qo‘shiq kuyladi**k**.*

2- mashq. Berilgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab, gaplar tuzing. I shaxs ko‘plik sondagi fe’llarga **-k** qo‘shimchasini qo‘shing.

Namuna: *Yangi yil haqida she’r yodladik.*

1. Bayroqcha, ipga, termoq ...
2. O‘yinchoq, osmoq, archa, shoxi ...
3. Rangli, o‘rnatmoq, chiroqlar ...

2- topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping va yod oling.



Yerni qor bosar,
Soyni muz bosar.
Shamol tinsa sal,
Bu qaysi mahal?



Katta oppoq dasturxon
Yer yuzini qoplagan.

3- topshiriq. Berilgan so‘zning har bir harfi ostiga shu harf bilan boshlanuvchi 4 tadan so‘z yozing.

Namuna: Qish

qor	in	shar
qishloq	igna	shamol

qatiq	idish	shim
qaychi	ilon	shakar

So‘zlar: *Qor, sovuq, muz, havo*

2- soat

ESLAB QOLING!

Qor yog‘**di**.	Qorbo‘ron o‘yna**dik**.
Yer muzla**di**.	Qorbobo yasa**dik**.
Sirpanchiq bo‘l**di**.	Chang‘i (konki) uch**dik**.

1- mashq. Rasm va berilgan so‘zlar asosida savol-javob o‘tkazing. Keyin „Qish o‘yinlari“ mavzusida 5 – 6 ta gapdan iborat yozma matn tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *qalin kiyingan, qorbo‘ron, muzladi, yog‘di, otdi, tegdi, yasashdi, chana, chang‘i, qorbobo, yaxmalak.*



1- topshiriq. She'rni o'qing, unda nima tasvirlanganligini toping. So'ngra she'rdagi savolga javob bering.

QISH MOMO

Osmon – elak, yer – supra,
Qish tinmasdan un elar.
Oqarmoqda qir, dala,
Oqarmoqda cho'qqilar.
Hey, qish momo, qish momo,
Buncha sertashvish momo,
Unnayapsiz nimaga,
Ayting, nima qilasiz?

Robiddin Is'hoqov

BILIB OLING!

O'zbek tilida **-sh**, **-ish** qo'shimchalari fe'llarga qo'shilgandan keyin **-di** qo'shimchasi kelsa, ish-harakatning birgalikda bajarilishini ifodalaydi.

Masalan: *Bolalar qorbobo yasashdi.*



2- topshiriq. Matnni o'qing va savolga javob bering. **-sh, -ish** qo'shimchalarining qo'llanishiga diqqat qiling.

Qish fasli keldi. Kunlar sovidi. Kecha qor yog'di. Hamma yoq oppoq bo'ldi. Ana, bolalar hovliga chiqishdi. Ular qishki kiyimlarini kiyishgan. Qo'llarida qo'lqoplari bor. Lola chanasini tortib chiqdi. Abror oyog'iga konkisini bog'lagan. Nodir bilan Nargiza qorbobo yasashyapti. Men ham hozir

o‘ynamoqchiman. Onamdan ruxsat olib, hovliga chiqaman.

Ayting-chi, men qanday o‘yin o‘ynay?

LUG‘AT

sovimoq – похолодать
shamollamoq – простудиться
qo‘lqop – перчатка
bog‘lamoq – привязать
yasamoq – здесь: лепить

2- mashq. Rasmlar tagidagi fe’llarga **-sh**, **-ish** qo‘shimchalarini qo‘shib, gaplar tuzing.



yasamoq



uchmoq

3- topshiriq. Matnni o‘qing va uning mazmuni asosida qishda qanday o‘yinlar o‘ynaganingiz haqida so‘zlab bering.

CHIMYONDA

Qishki ta’tilda otam bilan Chimyonga bordik. Biz bilan qo‘shni bolalar ham borishdi. Chimyon tog‘larida qor ko‘p ekan. Bolalar turli tomoshalarni ko‘rishdi. Biz uchun qiziqarli musobaqalar o‘tkazishdi.

Bu o‘yinlarda hammamiz qatnashdik. Kattalar xokkey o‘ynashdi. Biz chanada uchdik. Do‘stlarim juda xursand bo‘lishdi.

LUG‘AT

qo‘shni – сосед
tog‘ – гора
tomosha – зрелище
qatnashmoq – участвовать
kattalar – взрослые
xursand bo‘lmoq – радоваться

3- mashq. Javoblarni to‘ldirib, gaplarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

1. – Bolalar nima uchun qo‘lqop kiyishdi?
   – Qorbobo yasa... .
2. – Anvar bilan Abror tepalikdan qanday tushishdi?
   – ... chanada ... .
3. – Nega ko‘chada yaxmalak uchish mumkin emas?
   – Chunki ... mashinalar ... .
4. – Ular chang‘ida uchishni o‘rganishdimi?
   – Ha, ...

Uyga vazifa. 3- topshiriqda berilgan matndan **q** va **g‘** tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni toping va to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qing.

3 - soat

1- topshiriq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing.

OB-HAVO TAQVIMI

Biz ob-havo taqvimini yuritamiz. O‘qituvchimiz turli belgilar qo‘yishni o‘rgatganlar. Har kuni haroratni o‘lchaymiz. Bu havoda qanday o‘zgarish bo‘lishini aniq bilishga yordam beradi. Har oyning oxirida kuzatganlarimizga yakun chiqaramiz. Yog‘inli va ochiq kunlarni belgilaymiz. Bu ishlarni biz qiziqib bajaramiz.

LUG‘AT

ob-havo – погода
yil fasllari – времена года
harorat – температура
o‘lchamoq – измерять
belgilamoq – отмечать

1- mashq. Gaplarni o‘qing. Ularni fasllar tartibi bo‘yicha qo‘yib ko‘chiring. Ona tilingizga tarjima qiling.

1. Yozda havo issiq bo‘ladi. 2. Qishda juda sovuq bo‘ladi. 3. Maysalar ko‘karadi. 4. Yaproqlar sarg‘aya boshlaydi. 5. Harorat ko‘tariladi. 6. Bolalar qorbo‘ron o‘ynashadi, qorbobo yasashadi. 7. Bahorda kunlar yana isiy boshlaydi. 8. Kuzda havo salqin bo‘ladi.

2- topshiriq. Har bir faslga xos belgilarni alohida yozing.

Namuna: *Bahor faslida kunlar iliq bo‘ladi. Yomg‘ir yog‘adi. Maysalar ko‘karadi.*



2- mashq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

– Qish fasli qachon tugaydi?

– ... .

– Keyin qaysi fasl keladi?

– ... .

– Bahorda havo qanday bo‘ladi?

– ... .

3- mashq. Javoblarning mazmuniga asoslanib, savollar tuzing va suhbatni davom ettiring.

– ... ?

– Ha, bu oyda havo sovuq bo‘ladi.

– ... ?

– Mart oyidan boshlab havo isiydi.

– ... ?

– Albatta. Bahorda yomg‘ir ko‘p yog‘adi.

BILIB OLING!

Oldin, keyin so‘zlari **-dan** qo‘shimchasini olgan so‘zlarga qo‘shilib, payt ma’nosini ifodalaydi.

Masalan: *Qish**dan** **keyin** bahor keladi.*

Oldin, keyin so‘zlari mustaqil holda ham qo‘llanadi.

Masalan: ***Oldin** yomg‘ir, **keyin** qor yog‘di.*

4- mashq. Payt ma’nosi ifodalangan gaplarni aniqlang va ko‘chirib yozing.

Bahor fasli boshlandi. Havo isidi, keyin daraxtlar gulladi. Qushlar ham janubdan qaytdi. Oldin qaldirg‘ochlar uchib keldi.

Qishdan keyin ko‘chalar tozalandi. Gullar ekildi. Daraxtlar o‘tqazildi. Tabiat yanada go‘zallashdi.

Mustaqil ish. Rasmda tasvirlangan ikki faslni biribiriga qiyoslab, matn tuzing.







3- topshiriq. She’rni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

ONA TABIAT

Qish der: – Kumush qorim bor,
Qorbobo yasang!
– Gulim ko‘rkam, – der bahor,
– Guldasta yasang!
Yoz der: – Suvim beg‘ubor,
Suz baliq misol!
Kuz der: – Mevam, bolim bor,
Bari senga, ol!
Demak, ona tabiat
Bizni der har vaqt.

Toshpo‘lat Xolmatov



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she’rni yod oling.



1- soat **BAHOR KELDI**



1- topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini qayta hikoya qiling. **-da** qo‘shimchali so‘zlarga so‘roq bering.

Qushlar uchib keldi. Tog‘larda qorlar erib ketdi. Bahor fasli boshlandi. Dalalarda maysalar ko‘kardi. Daraxtlar kurtak yoza boshladi. Bog‘larda qushlar sayradi. Qo‘y-qo‘zilar yaylovga chiqdi. Dalalarda dehqonlar yer haydab, ekin eka boshladilar. Tabiatda ham o‘zgarish bo‘ldi. Osmonda quyosh charaqladi. Tez-tez yomg‘ir yog‘di.

LUG‘AT

ko‘karmoq – зеленеть
ekin – посев
kurtak – почка
o‘zgarish – изменение
tabiat – природа
charaqlamoq – светить



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni to‘ldiring va daftaringizga ko‘chiring.

1. Bahorda kunlar ... .
2. Yerlar ... .
3. Lolaqizg‘aldoqlar ... .
4. Ko‘chatlar ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *haydaladi, ekiladi, isiydi, ochiladi.*

BILIB OLING!

-da qo‘shimchasini olgan so‘zlar narsa-buyum yoki voqea-hodisalarning o‘rin-joyini bildiradi. Ular qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Masalan: ***Bog‘da*** (qayerda?) *daraxtlar gulladi.*



2- topshiriq. She’rni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

BAHOR KELDI

Keldi **bahor,** gul bahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi **marjon.**





Suvlar oqar shildirab,
Yulduz boqar miltirab,
Chumolilar yayrashar,
Sho‘x bulbullar sayrashar...

Tog‘ bag‘rida qo‘zilar
Ma’rab o‘tga cho‘zilar.
Tolbargak taqib qizlar
Chuchmomalarni izlar.

Quyosh nurlarin sochdi,
Atirgul g‘uncha ochdi.
Yuring, chiqaylik, bog‘lar
Bizni kutar, o‘rtoqlar.

Shukur Sa’dulla

LUG‘AT

erimoq – таять
marjon – здесь: украшение
tog‘ bag‘ri – склон горы
chuchmoma – колокольчик
nur – свет
bulbullar – соловьи
cho‘zilmoq – потягиваться
izlamoq – искать

Uyga vazifa. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

2- soat

1- mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan bog‘lab, ular asosida gaplar tuzing.

Quyosh	ochilmoq
Kunlar	erimoq
Gullar	isimoq
Muzlar	gullamoq
Daraxtlar	qizdirmoq

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatlashing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *yumshatmoq, oqlamoq, ekmoq, ko‘chat, mevali daraxt.*

2- mashq. Savollarga javob toping va suhbatni ko‘chiring.

– Bahorda qaysi daraxt oldin gullaydi?

– ... .

– Bahorda birinchi ochiladigan gulning nomi nima?

– ... .

– Bahorda qaysi qush birinchi bo‘lib janubdan uchib keladi?

– ... .



2- topshiriq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, matnni davom ettiring.

Bahorda turli bayramlar o‘tkaziladi. Ayniqsa, „Gullar bayrami“ tanlovi menga yoqadi. Sinfimiz o‘quvchilari bu tadbirda faol qatnashadi. Dugonalarim Lola, Ozoda va Sitora har xil gullar o‘stiradilar. Tanlovda gullarning turi, rangi va boshqa belgilari haqida savollar berishadi. Gullar haqida she’rlar aytib beramiz.

Siz gullar haqida nimalarni bilasiz? Keling, suhbatlashamiz ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *boychechak, binafsha, qizil, oq, yashil, pushti, erta ochilmoq, barg, qirda, guldonda, uyda, o‘stirmoq, suv quymoq, lolaqizg‘aldoq.*

LUG‘AT

o‘tkazmoq – проводить
tanlov – конкурс
boychechak – подснежник
binafsha – фиалка
tadbir – мероприятие
lolaqizg‘aldoq – мак

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

Bahor yilning eng chiroyli ... (oyi, haftasi, fasli). Bahor ... (fevral, mart, aprel) oyidan boshlanadi. Kunlar isiy boshlaydi va ... (ayiq, gul, tabiat) uyg‘onadi. ... (tog‘da, qirda, suvda) binafsha, boychechaklar ochiladi. Dalalarda, xiyobonlarda ... (maysa, gul, bog‘)lar ko‘karadi. Daraxtlar ... (gul, barg, ildiz) chiqaradi. Barchamiz bu go‘zallikdan ... (sho‘x, shod, xafa) bo‘lamiz.

ESLAB QOLING!

Kim? Nima?	Qayerda?
Abror	maktab**da**
Qushlar	shox**da**
Hayvonlar	o‘rmon**da**
Daraxtlar	bog‘lar**da**

3- topshiriq. Berilgan harflar yordamida so‘z yozing. So‘zlardan gaplar tuzing.

Namuna: „B“, „N“, „G“, „Q“, „O“.

Bahor Navro‘z gul qush ona.

Bahorda kunlar isiydi. Navro‘z bahor bayrami. Gullar ochildi. Qushlar uchib keldi. Onam bilan bayramga bordim.

Harflar: D, H, K, I, S.

4- topshiriq. Maqollarni o‘qing va ma’nosini aytib bering.

- ✓ Bahorgi harakat – kuzgi barakat.
- ✓ Bir yil tut ekkan kishi
  Yuz yil gavhar teradi.
- ✓ Birni kessang, o‘nni ek!
- ✓ Mehnat – mehnatning tagi rohat.

Uyga vazifa. 4- topshiriqdagi maqollarni yod oling.

3- soat

1- mashq. Savollarni o‘qing va ularga javob bering. Suhbatni davom ettiring.

– Sen onangga bayramda nima sovg‘a qilmoqchisan?

– ... .

– Ular kitobni yaxshi ko‘radilarmi?

– ... .

– Ukang nima sovg‘a qilmoqchi?

– ... .

– Onajoning qanaqa gulni yaxshi ko‘radilar?

– ... .

1- topshiriq. She’rni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

SIZ MEHRIBONIM

Siz mening quyoshim,
Mehribon onam.
Siz bilan munavvar
Hovli-yu xonam.
Munisim, mo‘tabar,
G‘amxo‘rim onam.
Manglayim to‘rida,
Boshda parvonam.
Bahordan bahorlar
Yaratgan aziz,
Hikmatli murabbiy,
So‘zlari **laziz.**



Obid Rasul

LUG‘AT

munavvar – светлая
g‘amxo‘r – заботливая
murabbiy – наставница
manglay – чело, лоб
parvona – чрезмерно заботливая

BILIB OLING!

Kishi nomlari va qarindoshlikni anglatuvchi so‘zlarga **-jon** qo‘shimchasi qo‘shilsa, hurmat va erkalash ma’nosi ifodalanadi.

Masalan: *Mahmudjon, onajon, opajon, singiljon.*

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini va zarur qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bugun erta turib ... (singiljon, ukajon) nonushta tayyorladim. 2. ... (opajon, singiljon) sochini tarab qo‘ydim. 3. ... (buvajon, onajon) ishga erta ketdilar. 4. Tushlikni tayyorlashda ... (onajon, buvijon) yordamlashdim. 5. Men ... (buvijon, dadajon) qo‘llariga suv quydim. 6. Gazetani ... (dadajon, buvajon) berdim.



2- topshiriq. Matnni o‘qing. Maktabingizda o‘tgan tadbir haqida so‘zlab bering.

8- mart – Xotin-qizlar bayrami. Hamma bolalar buvijonlari, onajonlari, opa-singillari va o‘qituvchilarini tabriklaydilar. Ularga gul va o‘z qo‘llari bilan yasagan sovg‘alarini beradilar. Bugun maktabimizda katta bayram. Bayramga buvijonlar ham taklif etilgan. Ular uchun o‘quvchilar she’rlar aytib, qo‘shiqlar kuylashdi.

LUG‘AT

tabriklamoq – поздравлять
taklif etmoq – пригласить
sovg‘a – подарок
bayram – праздник



Mustaqil ish. Maqol va hikmatlarni o‘qing, ma’nosini tushuntiring.

- ✓ Ona kulsa, olam kular.
- ✓ Ona – hayot gultoji.

Ona mehri toshni eritar,
Ona qahri tog‘ni qulatar.



3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

ONAJONLAR BAYRAMI

Siz dunyoda tengi yo‘q,
Mehribonsiz, onajon.
Dasta-dasta gul tutay,
Ko‘p yashang, bo‘ling omon.

8- mart bu kun –
Onajonlar bayrami.
Yo‘llariga poyandoz –
Dasta gullar boylami.

Ne’mat Toshpo‘lat



4- topshiriq. „Mozaika“ mashqi. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, gaplar tuzing.

Onajonlar, bugun, bayrami.
Bilan, men, bayram, tabrikladim, buvijonimni.
Tayyorgarlik, bayramga, ko‘rdik.



Uyga vazifa. 3- topshiriqdagi she’rni yod oling.

1- soat ASSALOM, NAVRO‘Z!



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Anvar, ertaga qanday bayram?

– Ertaga Navro‘z bayrami.

– Navro‘z qanday bayram?

– Navro‘z – bahor bayrami.

– ... ...

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, daftaringizga ko‘chiring.

Bugun ... bayrami. Uni ... olib keldi. Binafsha ... . Kunlar ... . Buvijonlar qozonda ... pishirishdi. Dasturxonga ko‘k ... , ... qo‘yildi. Navro‘z shodlik, baxt va ... keltirdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *baraka, sumalak, chuchvara, somsa, Navro‘z, isidi, ochildi, bahor.*



2- mashq. Savollarga javob toping va suhbatni davom ettiring.

– Navro‘z bayrami qachon nishonlanadi?

– ... .

– Navro‘z qanday bayram?

– ... .

– Navro‘zda qanday taomlar pishiradilar?

– ... .

BILIB OLING!

Ish-harakatning bir necha kishilar tomonidan bajarilganligi **-dilar, -(i)shdi** qo‘shimchalari yordamida ifodalanadi.

Masalan: *Ayollar sumalak pishir**dilar**. Bolalar ko‘chalarni tozala**shdi**.*



3- mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. **-dilar, -ishdi** qo‘shimchalarini to‘g‘ri talaffuz qiling.

Bu yilgi Navro‘z bayramiga (kuchli, yaxshi) tayyorgarlik ko‘rildi. Sinfimiz o‘quvchilari (tezroq, faol) qatnashdilar. Maktab (binosi, hovlisi) supurildi, (daraxtlar, xonalar) tozalandi. Bayramda bahor va Navro‘z (bilan, haqida) she’rlar aytishdi. Bolalar o‘rtasida sport (ishlari, musobaqalari) o‘tkazildi.



2- topshiriq. She’rni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

NAVRO‘Z

Ko‘hna Turon elimda
Navro‘zi olam.
Yellar tutar qo‘limdan:
„Qani, yur, oshnam“.

Nur sochadi mo‘l-u ko‘l
Navro‘z quyoshi.
Sayilgohda yurtimning
Keksa-yu yoshi.

Qozonlarda sumalak,
Yoziq dasturxon.
Navro‘z – bayram muborak,
Ey, O‘zbekiston!

Rauf Tolib



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she’rni yod oling.

2- soat

1- topshiriq. Rasmdan foydalanib, berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *sumalak, tantana, Navro‘z, o‘yin, bahor, bog‘, bayram.*

2- topshiriq. Javoblar mazmunidan kelib chiqib, savollar tuzing va suhbatni davom ettiring.

– ... ?

– Biz ham bayram tantanalariga boramiz.

– ... ?

– Do‘stlarim bilan bayram tomoshalarini ko‘ramiz.

– ... ?

– Navro‘z taomlaridan tatib ko‘ramiz.

3- topshiriq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing.

NAVRO‘Z – YANGI KUN

Navro‘z bayrami 21-martda nishonlanadi. 21-martda kechasi bilan kunduzi teng bo‘ladi. Quyosh shu kundan boshlab baland ko‘tariladi. Kunlar uzayadi. Hamma yerda xalq sayillari boshlanadi. Biz ham bayram tantanalarida qatnashdik. O‘yin o‘ynab, raqsga tushdik. Katta qozonda sumalak pishdi. Biz sumalak yedik. Bayram tomoshalarini ko‘rdik va xursand bo‘ldik.

LUG‘AT

nishonlamoq – отмечать
yangi kun – новый день
teng bo‘lmoq – уравниваться
qadimdan – с древних времён
sayil – народное гуляние
tinglamoq – слушать
uzaymoq – продлиться
xursand – радостный

1- mashq. Tasvirlangan narsalar nomini yozib, matnni to‘ldiring.

Navro‘zda  ekadilar.  tozalaydilar. Ko‘k  pishiradilar. Hamma raqsga tushadi, o‘ynaydi. Dalada  ochiladi.  uchib keladi. Navro‘z bayrami uzoq vaqt davom etadi. Hamma xursand bo‘ladi.

Uyga vazifa. Navro‘z bayramiga qanday tayyorgarlik ko‘rdingiz? Bayramda qayerga bordingiz?

3- soat

1- topshiriq. Navro‘z bayramida amal qilinadigan urf-odatlarni o‘qing. Navro‘zda nima qilishingiz haqida so‘zlab bering.

- ✓ Navro‘zda uy-hovlilarni tozalaydilar.
- ✓ Navro‘zda tilaklar qiladilar.
- ✓ Navro‘zda yangi kiyim-bosh kiyadilar.
- ✓ Navro‘zda sumalak pishiradilar.

1- mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Milliy, bayram, sumalak, ko‘k somsa, osh, tayyorlamoq, supurmoq, oqlamoq, o‘tkazilmoq.

2- topshiriq. Matnni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

Navro‘z – qadimiy bayram. O‘rta Osiyo xalqlari bahorgi ishlarning boshlanishini shu kun bilan bog‘laganlar. **Yaxshi niyat** bilan dalaga urug‘ sochganlar. Yurtimizda 21- mart **umumxalq bayrami** deb e’lon qilingan. O‘zbekistonning har bir shahar va qishloqlarida bu kun **xalq sayillari** bo‘lib o‘tadi. Qiziqarli o‘yin va turli musobaqalar o‘tkaziladi. Navro‘zni biz ham qizg‘in nishonlaymiz.

Navro‘z milliy **urf-odatlarimiz** mujassam bo‘lgan bayramdir. U mehr-oqibat, do‘stlik va totuvlikni **qadrlashga** chaqiradi.



3- topshiriq. She’riy parchani ifodali o‘qing, **i** va **u** tovushlarining talaffuziga e’tibor bering.

Xush kelibsan, gul bahor,
Chin ko‘ngildan assalom.
Xush kelibsan, yana bir bor,
Sengadir shirin kalom.

Nazira Akramova



4- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini qayta hikoya qiling. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Bahor – bayramlarga boy fasl. Navro‘zi olam ham bahor fasliga **to‘g‘ri keladi.** Navro‘z – **qadimiy** bayramlardan biri. Navro‘zda hovli va ko‘chalar tozalanib, tartibga keltiriladi. Hamma yoqda bayram **tantanalari** o‘tkaziladi. Navro‘z bayramida sumalak, halim kabi **bahor taomlari** pishiriladi. Bemorlar va keksalarning holidan xabar olinadi.

LUG‘AT

to‘g‘ri kelmoq – совпадать
xabar olmoq – навестить
xursandchilik – веселье
tantana – торжество
hamma yoq – всюду
oqlamoq – белить



Uyga vazifa. 3- topshiriqdagi she’rni yod oling.

1- soat ORASTA BO‘LING



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Aziza, siz sinfingizda tozalikka rioya qilasizmi?

– Ha, albatta, biz maktabimiz va sinfimizni toza saqlaymiz.

– Buning uchun nima ishlar qilasizlar?

– Hammamiz, avvalo, o‘z sinfimizni toza saqlaymiz. Har kuni sinfimizni tozalab, gullarga suv quyamiz. Sinfimizdagi jihozlarni asrab-avaylaymiz.

– Sinfingizda o‘zingizni qanday tutasiz?

– Sinfimizda tozalikka rioya qilamiz. Polga qog‘oz tashlamaymiz. Oyoq kiyimimizni tozalab artib, keyin sinfga kiramiz.

– ... .



1- mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

ORASTA O‘QUVCHI

Nigora 4- sinfda o‘qiydi. U a’lochi, xulqi **namunali** qiz. Sinfimiz o‘quvchilari Nigoraga **havas qilishadi**. O‘qituvchimiz Ozoda opa: „Orasta o‘quvchi har kuni ertalab turib yuz-qo‘lini **yuvadi**, tishlarini **tozalaydi**, sochlarini tarab, **kiyimlarini** toza tutadi. Ovqatlanishdan oldin, albatta, qo‘lini sovunlab yuvadi. Maktabdan kelib, kiyimlarini qoqib, oyoq kiyimini tozalab joyiga qo‘yadi“, – deydilar. Biz o‘qituvchimizning aytganlarini bajarishga harakat qilamiz.

Ayting-chi, **orasta** o‘quvchi yana qanday xislatlarga ega bo‘lishi kerak?

BILIB OLING!

-lik qo‘shimchasi sifatlarga qo‘shilib, belgi-xususiyat otlarini yasaydi.

Masalan: *toza + **lik** – toza**lik**, ozoda + **lik** – ozodalik, orasta + **lik** – orasta**lik**.*



2- mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarga ikkinchi ustundan mos so‘zlarni topib, so‘z birikmalari yasang. Bu so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing.

Namuna: *idishlarni yuvish – Men idishlarni yuvaman.*

Uy	yuvish
Idishlarni	dazmollash
Kiyimlarni	artish
Changlarni	supurish



2- topshiriq. Berilgan so‘zlarga **-lik** qo‘shimchasini qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling. Ularni *yoqtirmoq* fe’li bilan bog‘lab, tasdiq yoki inkor mazmunini ifodalovchi gaplar tuzing.

Namuna: *Tozalikni yoqtiraman.*

Go‘zal, iflos, ko‘rkam, olifta, qo‘pol, tartibli, muloyim, odobli.



3- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

O‘QUVCHI, ESINGDA BO‘LSIN

Barvaqt turish odating bo‘lsin,
Badantarbiya bo‘lmasin kanda.
Ozodalik **shioring** bo‘lsin,
Salomatlik garovi shunda.
Yosh badaning quvvatga to‘lur,
Mushaklaring misli tosh bo‘lur.
Tishingni tutgin doimo toza,
Tish pastasida yuvgin rosa!
Esingdan hech chiqarma,
Keyin pushaymon bo‘lma.

Muzaffar Turobov

LUG‘AT

barvaqt – рано	**mushaklar** – мускулы
shior – лозунг	**badantarbiya** – зарядка
odat – привычка	**pushaymon** – раскаяние

Uyga vazifa. 3- topshiriqda berilgan she’rdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

2- soat

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Komil har kuni ertalab yuz-qo‘lini ... , tishlarini ... , sochlarini ... , kiyimlarini ... tutadi. Komil maktabdan kelib kiyimlarini ... , oyoq kiyimini joyiga olib qo‘yadi. Xonasidagi changlarni ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *tozalab, artadi, yuvib, toza, qoqib, taraydi.*



2- mashq. Gaplarni o‘qing, ularning mazmunidan kelib chiqib, nima qilish kerakligini ayting. Namunadagidek javoblar yozing.

Namuna: *Qo‘li iflos bo‘ldi. – Qo‘lingni yuv.*

1. Kiyimi loy bo‘ldi.
2. Polga qog‘ozlar tashlandi.
3. Portfeling chang bo‘libdi.
4. Tirnog‘i o‘sgan.



1- topshiriq. She’rni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

ORASTA BO‘L

Kitob va daftarni toza saqla,
Avvalambor ustini muqovala.
Hech bir varag‘iga yuqmasin gard,
Orasta o‘quvchi nomin oqla.
Kitob ichida xatcho‘ping bo‘lsin,
Satrlar ustida birma-bir yursin.
Barmog‘ingni ho‘llab varaqlama,
Bu yumushni ham xatcho‘ping qilsin.
Toza, dazmollangan kiyimda yurgin,
Ko‘rganlarning havasi kelsin.
Sinfda doimo namuna bo‘lgin,
A’lo xulqing maqtovda bo‘lsin.

Muzaffar Turobov

LUG‘AT

avvalambor – сначала
yumush – работа
nomin oqla – береги честь
muqovalamoq – переплетать
xatcho‘p – закладка
xulq – поведение
yuqmasin gard – пусть не пачкается
maqtov – похвала
satr – строка



1. She’r nima haqida ekanligini so‘zlab bering.
2. Orastalikka oid so‘zlarni topib, ularni daftaringizga ko‘chiring.
3. Yangi so‘zlarni yod oling.



2- topshiriq. „Har bir harfga to‘rtta so‘z“ mashqi. Mavzuga oid so‘zlar: ozoda, ko‘rkam, tartibli.

Namuna: orasta

O	R	A	S	T	A
Olma	Rom	Anor	Soat	Tun	Ayiq
Ona	Randa	Aka	Salim	Til	Archa
Ota	Ruchka	Asal	Salom	Tol	Ari
Oila	Ro‘mol	Aql	Sog‘lom	Tosh	Abror



Uyga vazifa. 1- topshiriqda berilgan she’rni yod oling.

1- soat SPORT VA SALOMATLIK



1- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

– Sog‘lom bo‘lish uchun nima qilish kerak?
– Sport bilan shug‘ullanish, ozoda yurish kerak.
– Badanni chiniqtirish foydalimi?
– Ha, albatta. Inson badanini chiniqtirsa, doim sog‘lom bo‘ladi.

BILIB OLING!

Harakat nomlari **-(i)sh** qo‘shimchasi vositasida ifodalanadi. Masalan: *sakra**sh**, suzi**sh**, o‘yna**sh**, chopi**sh**, to‘p tepi**sh**, mashq qili**sh*** kabi.

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying va daftaringizga ko‘chiring.

Anvar ... bola. U ... toza bo‘lishi uchun harakat qiladi. Ali ko‘cha qoidalariga ... . O‘quvchi partada...

o‘tirishi kerak. Qo‘l va ... ozoda tutishi kerak. ... tez keladi, lekin sekin ketadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *badanining, aqlli, qiyshaymay, amal qiladi, dard, betini.*



2- topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

Sport sog‘liqni mustahkamlaydi. Har bir kishi sport bilan **shug‘ullanishi kerak**. O‘g‘il bolalar futbol, kurash, boks bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radilar. Qizlar ko‘proq gimnastika, tennisni tanlaydilar. Shaxmat va shashka ham **sport o‘yinlari**. Ko‘chada bekinmachoq, quvlashmachoq **o‘ynaganda** siz yugurasiz. Arqon o‘ynaganda sakraysiz. Bunday o‘yinlarni o‘ynash juda foydali. Shunda **tana a’zolari** o‘sadi, **baquvvat** bo‘ladi. Shuning uchun sportni seving! Sportning biror turi bilan doimo shug‘ullaning!

LUG‘AT

chiniqmoq – закаляться
shug‘ullanmoq – заниматься
aytgandek – кстати
tanlamoq – выбрать
sport turi – вид спорта
foydali – полезный
tana a’zolari – части тела
baquvvat – сильный



Uyga vazifa. Sizga qaysi sport turi yoqadi. Shu haqida 4 – 5 ta gapdan iborat matn tuzing.

2- soat

1- topshiriq. Savol-javoblardagi nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni topib, suhbatni davom ettiring.

– ... badantarbiya qildingmi?

– Ha, ertalab ... . O‘zing-chi?

– ... to‘garagiga qatnashaman.

– Men ham qatnashmoqchiman.

– Yur, ... murabbiy ... tanishtiraman.

1- mashq. Berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Maktabimizning ... katta va chiroyli. 2. Zalda ..., ..., ... kabi anjomlar bor. 3. ... yordamida biz turli mashqlarni bajaramiz. 4. Sinfimiz o‘quvchilari ..., ..., ..., ... bilan shug‘ullanadilar. 5. Sport musobaqalari bizlarni ... va ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘p, tayoqcha, tennis, chiniqtiradi, qo‘lqop, taekvondo, sport zali, boks, gantel, do‘stlashtiradi, kurash.*

2- topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmuniga mos sarlavha toping.

Bizning sport to‘garagimizga yangi o‘quvchilar kelishdi. Ular aka-uka ekanlar. Akasining ismi Akmal,

ukasining ismi Botir. Akmal Botirga qaraganda chaqqon ekan. Botir ham tezkorlikda akasidan qolishmaydi. Mashqlarni epchillik bilan bajaradi. Murabbiyimiz ko‘p o‘ylamay, Botirni futbol terma jamoasiga yozib qo‘ydi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, terma jamoamiz futbol o‘yinida qatnashdi. Jamoamiz musobaqada g‘alabani qo‘lga kiritdi. Hal qiluvchi golni Botir bilan Akmal epchillik bilan urdilar.

LUG‘AT

epchil – ловкий
chaqqon – шустрый
terma jamoa – сборная команда



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi matnni so‘zlab bering.



1- soat HAR DOIM BO‘LSIN TINCHLIK



1- mashq. Ko‘chiring. Gaplarning mazmunini so‘zlab bering.

- ✓ Daraxt ildizi bilan kuchli, odam – do‘stlari bilan.
- ✓ Tinchlik bo‘lsa, barcha ahil yashaydi.
- ✓ Tinchlik – baxt, sog‘lik – taxt.



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Bu so‘zlardagi **u** va **o‘** tovushlarining talaffuzini farqlang.

Biz tinchlik ... deymiz. Tinchlik quvonch, ..., obodlik, ... keltiradi. Shunda xalqlar ..., ahil yashaydilar. Ammo ... hamma narsani vayron qiladi: odamlar ..., binolar buziladi.

Bolalar, bir-biringizga qo‘l berib, inoq ...! Urush-urush o‘ynamang. Urush haqidagi, qo‘liga ... ushlagan kishilar haqidagi filmlarni ko‘rmang.

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘qlik, urush, o‘ladi, bo‘lsin, farovonlik, tinch, qurol, yashang.*

ESLAB QOLING!

Buyruq maylidagi fe’llar ish-harakatni bajarish haqidagi buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma’nolarni bildiradi. Masalan: *Vatanimizda tinchlik bo‘l**sin***. Buyruq maylining bo‘lishsizlik shakli esa ***-ma*** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan: *Urush bo‘l**masin**.*



1- topshiriq. She’rni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

TINCHLIKNI KUYLAYMIZ

Tinchlik istar butun olam,
Tinch yashashni sevar odam,
Barcha ellar do‘st-qadrdon,
Do‘stlik uyi – O‘zbekiston.
Biz tinchlikni kuylaymiz shod,
Tinchlik bilan ellar obod.
Doimo tinch bo‘lsin jahon,

Tinchlik bo‘lsa – yurt farovon.
Do‘stlik, tinchlik – shiorimiz,
Tinchlik eli – diyorimiz.

Barot Isroil

LUG‘AT

istamoq – хотеть
farovon – благополучный
qadrdon – дорогой
shod – весёлый

Mustaqil ish. Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. Yuqoridagi she’r nima haqida yozilgan?
2. „Tinchlik“ deganda nimani tushunasiz?
3. Tinchlik mavzusida beshta gapdan iborat matn tuzing.

Uyga vazifa. Tinchlik haqida 2 – 3 ta gap tuzing.

2- soat

1- mashq. Har bir qatorda qavs ichida berilgan raqam o‘rniga alifbo tartibidagi harfni qo‘yib, maqollarni o‘qing.

(20) rush – o (5) at.
Tin (28) lik ur (20) shni yen (6) ar.
Tinchli (10) – (5) aro (26) at.
(16) o‘sh (13) ing tinch – sen tinch.

ESLAB QOLING!

uy – o‘y	kul – ko‘l	quy – qo‘y
uch – o‘ch	kuch – ko‘ch	un – o‘n

2- mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

Tinchlik, do‘stlik, qo‘shiq, dunyo, ahil, quvnoq, xotira, hech narsa, aziz.

1- topshiriq. Qavs ichida berilgan yaqin ma’noli so‘zlardan gap mazmuniga mosini topib, maqollarni yozing.

Namuna: *Tinch (elning, yurtning) bog‘i gullaydi.*

1. Tinchlik bilan (el, yurt) ko‘karadi,
   Yomg‘ir bilan (zamin, yer) ko‘karadi.

2. Tinchlik — (quvonch, baxt),
   Sog‘lik — (taxt, boylik).

2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. **u** va **o‘** harflarining talaffuziga ahamiyat bering.

TILAGIM

Tinchlik haqida
Kuylasam qo‘shiq,
Ovozim yangrar
Yana ham jo‘shib.

Hamma baxtiyor
Yashasin deyman,
Sursin mehnatin
Nash’asin deyman.

Quchoqlar to‘lsin
Hamisha gulga,
Jaranglab tursin
Dunyoda kulgu.

Yo‘ldosh Sulaymon

LUG‘AT

yangramoq – звенеть
quchoq – объятие
nash’a – радость
jo‘shib – с восторгом

Uyga vazifa. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

1- soat YO‘L HARAKATI QOIDALARI

1- topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.



1. Rasmda qanday transport vositalari tasvirlangan?
2. Avtobusni kim boshqaradi?
3. Avtobus kimlarni tashiydi?
4. Mashinalar yuradigan yo‘l qanday ataladi?
5. Piyodalar yuradigan yo‘l qismi-chi?



2- topshiriq. Berilgan so‘zdagi **-sh**, **-ish** qo‘shimchalarini to‘g‘ri talaffuz qiling va daftaringizga ko‘chiring.

qara**sh**	o‘t**ish**	bil**ish**
o‘qi**sh**	kut**ish**	chop**ish**
to‘xta**sh**	yur**ish**	ayt**ish**



1- mashq. Matnni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering. Mazmunini so‘zlab bering.

KO‘CHA

Mana bu bizning ko‘chamiz. U Bobur nomi bilan ataladi. Bu ko‘chada avtobus, yuk mashinalari va yengil mashinalar qatnaydi. Mashinalar qatnaydigan yo‘ldan yurish xavfli. Odamlar piyodalar uchun ajratilgan yo‘llardan yurishlari kerak. Chorrahada svetofor bor. Ana, svetoforning yashil chirog‘i yondi. Endi yo‘ldan o‘tish mumkin.

LUG‘AT

yo‘l – дорога
deyiladi – называется
yo‘lka – тротуар, дорожка
xavfli – опасный
yurish kerak – надо ходить
o‘tish – переходить
chorraha – перекрёсток
yengil mashina – легковая машина

BILIB OLING!

O‘zbek tilida **-sh**, **-ish** qo‘shimchali so‘zlar, ko‘pincha, *kerak, mumkin, mumkin emas* kabi so‘zlar bilan birga ishlatiladi.

Masalan: *yurish kerak – надо ходить, o‘tish mumkin – можно переходить* kabi.



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Bu ... ko‘cha. 2. Bolalar chorrahada ... 3. ... yashil chirog‘i yondi. 4. ... to‘xtadi. 5. Yo‘lovchilar ... o‘tishadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *mashinalar, katta, svetoforning, yo‘ldan, to‘xtashdi.*



3- topshiriq. „Intervyu“ mashg‘uloti.

Muxbir: Siz qaysi ko‘chada yashaysiz?

O‘quvchi: ... ...

Muxbir: Ko‘changizda piyodalar uchun yo‘lka bormi?

O‘quvchi: ... ...

Muxbir: Katta yo‘ldan o‘tayotganimizda nimaga rioya qilish kerak?

O‘quvchi: ... ...



Uyga vazifa. Ko‘cha, yo‘l, piyodalar, avtobus, yengil mashina so‘zlarini daftaringizga yozing va ular ishtirokida 4 ta gap tuzing.

2- soat



1- topshiriq. Suhbatlarni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Qizim, pochta qayerda?

– Narigi tomonda, buvijon.

– U tomonga qayerdan o‘taman?

– Yuring, „O‘tish joyi“ chap tomonda.

– Ana u chorrahadami?

– ...

– Aziz, yo‘l qoidalarini bilasanmi?

– Albatta.

– Ayt-chi, biz yo‘lning qayeridan yurishimiz kerak?

– Piyodalar o‘ng tomondan yurishlari kerak.

– Bu belgi nimani bildiradi?

– ...

2- topshiriq. Quyidagi topishmoqlarning javobini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Pat-pat etib suzib ketar,
Izi tezda o‘chib ketar.

Daladadir yumushi,
Tovoni to‘la tishi.

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Yo‘l belgilari avtomobillar va piyodalar ... yordam berish uchun qo‘yiladi. Bu belgilar haydovchi va ... oldindan ogohlantiradi. Mana „Piyodalar o‘tish joyi“ ... . Doimo ... shu yeridan o‘tish kerak, degani. Biz bu ... amal qilishimiz kerak.

Foydalanish uchun so‘zlar: *piyodalarni, belgiga, harakatiga, ko‘chaning, belgisi.*

3- topshiriq. Quyidagi yo‘l belgilarining nomini ayting. Yo‘l belgilari haqida suhbatlashing.



Quyidagi savollarga javob bering:

- Yo‘l belgilari qayerga o‘rnatiladi?
- „Bolalar“ belgisi nimani bildiradi?
- Piyodalar harakatini qaysi belgi taqiqlaydi?



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zlarni topib qo‘ying, so‘ngra daftaringizga ko‘chiring.

Yo‘llarning kesishgan joyi – ... . Transportda qatnovchi kishilar – ... . Yo‘lning piyodalar yuradigan qismi – ... . Avtobuslarga chiqiladigan joy – ... . Qatnovni tartibga soluvchi narsa – ... .



4- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.



NAZORATCHI

Ko‘cha-ko‘yni kuzatar
Nazoratchi akalar.
Tartibsizni tuzatar
Nazoratchi akalar.
Qo‘lga olgan tayog‘in
Ishorasin kutamiz.
Shuning uchun maktabga
Kech qolmasdan yetamiz.
Ko‘cha-ko‘yni nihoyat
Qilar doim nazorat.
Nazoratchi akajon,
Bizdan sizga ming rahmat.

Safo Ochil

LUG‘AT

ko‘cha-ko‘yda – на улице
tayoq – здесь: жезл
nazoratchi – регулировщик
ishorasin – знак



Uyga vazifa. 4- topshiriqdagi she’rning mazmunini so‘zlab bering.



1- soat YOZGI TA’TIL



1- topshiriq. Matnni o‘qib, sarlavha qo‘ying.

Yozda kunlar issiq bo‘ladi. Bog‘da mevalar pishadi. O‘quvchilarning ta’til kunlari boshlanadi. Kimdir qishloqqa dam olishga, kimdir oromgohga jo‘nab ketadi. Oromgohda har xil o‘yinlar o‘ynaydilar, kitob o‘qiydilar, sayohatga chiqadilar.

LUG‘AT

yoz kunlari – летние дни
go‘zal – прекрасный
kimdir – кто-то
ta’til – каникулы
oromgohda – в лагере
har xil – разный
cho‘miladilar – купаются



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘zlarni qo‘yib, daftaringizga yozing.

Yoz fasli ... – iyun, iyul va avgust. Bog‘da ... pishadi. Yozda ... kunlari boshlanadi. Bolalar ... cho‘miladilar. Men yoz faslini ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *mevalar, ta’til, uch oy, ko‘lda, yoqtiraman.*

2- mashq. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, rasm mazmuniga mos gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *ta’til, reja, oromgoh, dam olish, sayr qilish, sayohatga chiqmoq, chiniqmoq, soya-salqin, cho‘milmoq, baliq tutmoq, qiziqarli o‘yinlar, do‘stlashmoq.*

2- topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

YOZDA

Keldi yoz chog‘i,
Ko‘kda g‘oz uchdi.
Oromgoh qo‘yni
Bizlarni quchdi.

Yayraymiz cheksiz
Dam olib bu chog‘.
Maza ko‘l, dengiz,
Keng yaylov, o‘tloq.

Ilyos Muslim

Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she’rni yod oling.

2- soat

1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

– Yozgi ta’til qachon boshlanadi?

– Yozgi ta’til 1- iyundan boshlanadi.

– Siz yozgi ta’tilni qayerda o‘tkazasiz?

– Men yozgi ta’tilni bobomnikida o‘tkazaman.

– Bobong qayerda yashaydilar?

– Samarqandda yashaydilar.

– Samarqand qanday shahar?

– Samarqand katta va chiroyli shahar. U yerda tarixiy joylar juda ko‘p.

2- topshiriq. Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

YOZGI TA’TIL

Yaqinda darslar tugaydi va ta’til boshlanadi. Sinfdoshlar bilan yozgi ta’til rejasini tuzdik. Ko‘pchilik oromgohga borishni istaydi. Ba’zi bolalar tarixiy shaharlarga sayohatga boradilar. Ba’zilar ota-onalari bilan dam olish maskanlarida hordiq chiqaradilar.

„Kamalak“ oromgohi soya-salqin yerda joylashgan. Oromgoh atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan. Bu yerda ko‘p bolalar bilan do‘stlashamiz. Toza havoda chiniqamiz. Oromgohda hech qachon zerikmaymiz.

LUG‘AT

yaqinda – скоро, на днях
ko‘pchilik – большинство
oromgoh – лагерь
reja – план
ta’til – каникулы



1. Siz yozda qayerda dam olmoqchisiz?
2. Ta’tilda ko‘pchilik qayerga boradi?
3. Sayohatga kimlar bilan borasiz?
4. Qaysi oromgoh sizga yoqadi?
5. Oromgohda nimalar qilmoqchisiz?



1- mashq. Gaplarni o‘qing. **-dilar** qo‘shimchasini olgan so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Yozda do‘stlarim oromgohga bordilar. 2. Bolalar bizga yordam berdilar. 3. Oromgohda bolalar do‘stlashadilar, birga o‘ynaydilar. 4. Sinfdoshlarim bilan muzeyga boramiz. 5. Bolalar daryo bo‘yida uchrashdilar.

MUOMALA ODOBI

- ✓ Marhamat!
- ✓ Oq yo‘l!
- ✓ Yaxshi boringlar.
- ✓ Yaxshi dam olinglar.
- ✓ Xush kelibsiz!
- ✓ Ko‘rishguncha xayr!



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga **-dilar** qo‘shimchasini qo‘yib, gaplarni o‘qing va suhbatni davom ettiring.

– Sinfdoshlaringiz ta’tilda qayerga bora...?

– ... .

– U yerga yana kimlar bora...?

– Ustozlar ham ... .

– Guruh rahbarlari oromgohda nima qila...?

– ... .

– Murabbiylar tennis, shashka o‘ynashni o‘rgata...mi?

– ... .



3- topshiriq. Savolarga javob bering. Savollarga berilgan javoblar asosida kichik matn tuzing.

1. Yoz fasliga qaysi oylar kiradi?
2. Yoz faslini nima uchun yoqtirasiz?
3. Yozda qanday mevalar pishadi?



Uyga vazifa. „Yozgi ta’tilda nimalar qilasiz?“ mavzusida 3–4 ta gapdan iborat matn tuzing.

O‘ZBEKCHA-RUSCHA LUG‘AT

A

ahamiyat — значение
ahil — дружный
ajdodlar — предки
ajratilgan — выделенный
andava — мастерок, шпатель
anhor — речка
anjom — инвентарь
asalari — пчела
asar — произведение
avval — раньше
ayvon — веранда, терраса, балкон

B

badantarbiya — физзарядка
barobar — равно
bastakor — композитор
bayram — праздник
bemaza — невкусный
bemor — больной
betoqatlik — нетерпение
beg‘ubor — чистый, прозрачный
bir dona — одна штука
bir mahal — однажды
birinchi — первый
bormoq — пойти
bola ochmoq — выводить птенцов
boy, boylik — богатый, богатство
buklamoq — сгибать
bukmoq — гнуть, согнуть
burkamoq — укутать
bo‘yamoq — красить

D

daha — массив
dahliz — коридор
dahshat — страх, ужас
dam olmoq — отдыхать
daryo — река
darvoza — ворота
dastro‘mol — носовой платок
dasturxon — скатерть
dastyor — помощник
davolamoq — лечить
davr — период, эпоха
dazmollamoq — гладить
devor urish — возводить стену
doim — всегда
duo — благословение
duradgor — плотник

E

ehtiyot qilmoq — беречь, оберегать
ekin — посев
ekmoq — сеять, сажать
el — народ, люди
eritmoq — растворить
erta — рано, раньше
eslab qolmoq — запомнить
esmoq — дуть, веять
etak — подол; фартук

F

farzand — ребёнок
favvora — фонтан
foyda keltirish — приносить пользу
foydali — полезный

G

gapirmoq — говорить
garmdori — перец
guldasta — букет
guldon — ваза для цветов
gulzor — цветник
go‘zal — прекрасный; красавица

H

halok bo‘lmoq — гибнуть, погибать
halol — честный
hamshira — медсестра
har kuni — ежедневно
har oyda — ежемесячно
harorat — температура
haydamoq (yer) — пахать
hayot — жизнь
hasharot — насекомое
hech kim — никто
hech narsa — ничто
hech qachon — никогда
hikmat — мудрость
hil-hil — спелый
himmatli — щедрый
himoya qilmoq — защищать
hisoblash — считать
hol — положение, состояние, обстоятельство
hosil — урожай
hudud — территория
hunar — ремесло
hurmat qilmoq — уважать
hush — чувство, сознание

I

iflos — грязный, нечистый
ijodkor — творец, созидатель
iliq — тепло, тёплый
iloji boricha — по возможности
indamas — молчаливый
indin — послезавтра
ipak qurti — шелкопряд
isitmasi chiqmoq — температурить
ixcham — изящный
ichimlik — напиток

K

kasal — больной
kavshamoq — жевать
kashta — вышивка
kenja — младший
kechki ovqat — ужин
kimdir — кто-то
kiyik — олень
kulrang — серый
kumush — серебро; серебряный
kun sayin — день за днём
kundalik — повседневный; дневник
kurtak — почка (растения)
ko‘karmoq — зеленеть
ko‘kat — зелень
ko‘milmoq — завалиться
ko‘p qavatli — многоэтажный
ko‘rk — красота
ko‘rsatmoq — показать
ko‘zgu — зеркало

L

shirin — сладкий
lavlagi — свёкла
libos — одежда
likopcha — тарелка

loyiha — проект
lo‘ppi — пышный

M

mahsulot — продукция, товар
majmua — комплекс
makkajo‘xori — кукуруза
ma’no — смысл, значение
manzil — место назначения
mamnun — довольный
mard — смелый
maqtamoq — хвалить
masofa — расстояние
maslahat — совет
mastava — суп с рисом
maxsus — специальный
maza — приятно, хорошо
mashhur — знаменитый
mehmon — гость
mehmonxona — гостиница
mehmon qilmoq — угощать
mehr — любовь
me’mor — архитектор
momiq — мягкий, пушистый
moy — жир, масло
muhandis — инженер
musobaqa — соревнование
mustaqillik — независимость
mustaqil — самостоятельный
muzlamoq — замерзать
muqaddas — святой
mo‘l — много, обильно

N

nafs — желание (есть)
na’matak — шиповник
nechanchi — который
necha so‘m — сколько стоит
nimadir — что-то
niqob — маска
nishonlash — отмечать
nonushta — завтрак
nok — груша
novvoy — пекарь

O

obdan — тщательно
odil — справедливый
oqko‘ngil — простодушный
orasta — опрятный, опрятно
oldin — сначала
orqasida — за, сзади
ovqat, ovqatlanmoq — пища, еда; кушать
og‘ir — тяжёлый, тяжело
og‘rimoq — болеть
oshpaz — повар

P

parvarish qilmoq — ухаживать
paxtakor — хлопкороб
paxtazor — хлопковое поле
paydo bo‘lmoq — появляться, возникать
pirillamoq — порхать
podsho — царь
poliz — огород
posbon — страж
po‘stin — шуба, тулуп

Q

qad ko‘tarmoq — подняться, расти
qadimiy — древний
qadrdon — дорогой, близкий
qafas — клетка

qaldirg‘och — ласточка
qalin kiyinmoq — тепло одеваться
qaltiramoq — дрожать
qariya — старик
qayerda — где
qayerga — куда
qaynatma — варёный
qizg‘in — горячий; бурный
qoplamoq — покрывать
qorbo‘ron — игра в снежки
qovurma — жареный
qurilgan — подстроенный
qurilish — строительство
qurolli kuchlar — вооружённые силы
quvlash — догонять, гнаться
quvvat — сила
quvonch — радость
quyuq — густой
qo‘lda termoq — собрать вручную
qo‘lda yasalgan — ручная работа
qo‘ymoq — ставить, положить

R

raqam — цифра
raqs — танец
rassom — художник
rioya qilmoq — соблюдать
rost — правда

S

sahifa, varaq — страница, лист
sahro — пустыня
sanalmoq — считаться
salqin — прохладно
saqlamoq — беречь, хранить
saralamoq — отбирать, сортировать
sardor — предводитель, командир
saroy — дворец
sarg‘aymoq — желтеть
sayohat — путешествие
sayr qilmoq — гулять
sayramoq — петь (птицы)
sayyoh — турист
sergak turmoq — быть начеку
soha — сфера, область
soz — музыкальный инструмент
sozanda — музыкант
sport anjomlari — спортивный инвентарь
supurmoq — подметать
surtmoq — мазать
suyuq — жидкий
suzish — плавание

T

taajjublanmoq — удивляться
tabiiy boylik — природное богатство
takrorlamoq — повторять
talaffuz — произношение
tan berish — признать
tanimoq — узнать
taqsimlamoq — распределять
taramoq — расчёсывать
tarixiy obida — исторический памятник
tasma — лента
tasvirlash — изображать
terimchi — сборщик
tez aytish — скороговорка
tezroq — скорее
tikuvchi — портной, портниха

tinglamoq — слушать
tomir — вена (кровеносный сосуд)
tomosha — представление
tomchi — капля
topmoq — найти
tortib bermoq — взвешивать
toza havo — чистый воздух
toshbaqa — черепаха
toshqin — бурный
tur — вид
turp — редька
tuyaqush — страус
tuyoq — копыто
tuzsiz — несолёный
tushlik — обед
tushuntirmoq — объяснять
to‘kilmoq — сыпаться
to‘r — сетка

U

ustun — столбик
uy daftari — домашняя тетрадь
uzaymoq — удлиняться

V

varrak — воздушный змей
vatan — родина
vayron qilmoq — разрушать
voyaga yetmoq — достичь совершенства

X

xalta — мешочек
xartum — хобот
xayol — мечты, думы
xazina — сокровище
xil-xil — разные
xirmon — гумно, хирман
xiyobon — сквер
xizmat — служба, работа
xola — тётя (сестра матери)
xonadon — квартира
xotira — память, воспоминание
xotirjamlik — спокойствие
xushmuomala — вежливый

Y

yalpiz — мята
yaltiramoq — блестеть
yaqinda — недавно
yasamoq — изготавливать, лепить, мастерить
yasatmoq — наряжать, украшать
yer haydamoq — пахать землю
yerto‘la — подвал
yetim — сирота
yetib kelmoq — успеть
yigitcha — паренёк
yig‘im-terim — уборка урожая
yig‘ilish — собрание
yodda tutmoq — помнить
yodlamoq — запомнить
yonida — около, у, рядом с
yoqimli — приятный
yoqtirmoq — любить
yotoqxona — спальня
yordamlashmoq — помогать
yorug‘ — светлый
yog‘moq — идти (дождь, снег)
yog‘och — доска
yugurmoq — бегать, бежать
yurish — ход, ходьба
yurt — край, родина, страна

yuvinish xonasi — ванная
yuvmoq — мыть

Z

zamonaviy — современный
zar — золото, золотой
zararli — вредный, убыточный
zina — лестница
zumda — моментально
zo‘r — сильный, мощный

O‘

o‘lka — край
o‘quv qurollari — учебные принадлежности
o‘rganmoq — изучать, учиться
o‘rmon — лес
o‘rtasida — среди, в центре
o‘tirmoq — сидеть
o‘xshamoq — быть похожим
o‘yin — игра
o‘yin-kulgi — веселье

G‘

g‘alaba — победа
g‘ayrat bilan — энергично, старательно
g‘olib — победитель

SH

sharaf — честь
sharbat — сок
sharoit — условие
shekilli — кажется
shinam — уютный
shirin taom — вкусная еда (пища)
shishirmoq — надувать
shod-xurram — весёлый, радостный
shon-shuhrat — слава
shotut — красный тутовник

CH

chalmoq — играть (на музыкальных инструментах)
chanoq — хлопковая коробочка
chaqqon — ловкий
chang — пыль
chang‘i — лыжи
chigit — семена хлопчатника
chilla — летний зной; зимний холод
chin dildan — от души
chiniqtirmoq — закалять
chirillamoq — чирикать
chiroy ochmoq — становиться прекрасным
chumoli — муравей
cho‘kmoq — тонуть
cho‘miltirmoq — купать

скачано с сайта www.idum.uz

MUNDARIJA

Vatan.....4
Qadrdon maktabim.....14
Ko‘chamiz.....24
Uyimiz..... 29
Bog‘da..... 36
Kuzgi ishlar..... 45
Kitob..... 54
Bozorda..... 63
Do‘konda..... 73
Maktab oshxonasi.....81
Yil fasllari va ob-havo.....86
Bahor keldi.....96
Assalom, Navro‘z!..... 106
Orasta bo‘ling.....113
Sport va salomatlik.....118
Har doim bo‘lsin tinchlik.....121
Yo‘l harakati qoidalari.....125
Yozgi ta’til.....131
O‘zbekcha-ruscha lug‘at.....136

81.2 O‘zb(ya71)
R 27

Rafiyev A.

O‘zbek tili [Matn] : ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4- sinfi uchun darslik / A. Rafiyev, G. Muxamedjanova. – 8-nashri. – Toshkent; „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-22-052-2

UO‘K: 811. 512. 133
KBK 81.2 O‘zb(ya71)
R 27

ABDUROZIQ RAFIYEV,

GULNORA MUXAMEDJANOVA

O‘ZBEK TILI

Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 4- sinfi uchun darslik

8- nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2020

Muharrirlar: Z.Inyaminova, N. Rustamova
Badiiy muharrir Q.Shomurotov
Texnik muharrir N.Niyozmuhamedova
Kompyuterda sahifalovchi Sh. Ahrorova
Musahhih E.Najimova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040.10.12.2019. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 27.04.2020. Bichimi 70x901/16. Kegli 12, 14 shponli. Garn. Helvetika. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 10,53. Hisob-nashriyot t. 9,0. Adadi 6408 nusxa. Buyurtma

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy. Shartnoma № 13-20

81.2 O‘zb(ya71)
R 27

Rafiyev A.

O‘zbek tili [Matn] : ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4- sinfi uchun darslik / A. Rafiyev, G. Muxamedjanova. – 8-nashri. – Toshkent; „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-22-052-2

UO‘K: 811. 512. 133
KBK 81.2 O‘zb(ya71)
R 27

ABDUROZIQ RAFIYEV,

GULNORA MUXAMEDJANOVA

O‘ZBEK TILI

Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 4- sinfi uchun darslik

8- nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2020

Muharrirlar: Z.Inyaminova, N. Rustamova
Badiiy muharrir Q.Shomurotov
Texnik muharrir N.Niyozmuhamedova
Kompyuterda sahifalovchi Sh. Ahrorova
Musahhih E.Najimova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040.10.12.2019. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 27.04.2020. Bichimi 70x90$^{1}/_{16}$. Kegli 12, 14 shponli. Garn. Helvetika. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 10,53. Hisob-nashriyot t. 9,0. Adadi 77457 nusxa. Buyurtma

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy. Shartnoma № 13-20

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.